

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix kafedrası

PANJIYEV ISROIL BOTIRO‘G‘Lining

“5120300 Tarix(mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha)” ta‘lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

**”O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada fan ta‘lim tarixi (XII-XV
asrlar)”mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti

dekani _____prof. B.Eshov.

“ _____ ” _____ 2017yil

Ilmiy rahbar:

o‘q. J.Berdiyev

Qarshi 2017.

Mundarija.

Kirish..... 3-5

I – bob. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada dastlabki universitetlarning vujudga kelishi va tashkiliy tuzulishi

1.1. G‘arbiy Yevropada dastlabki universitetlarning vujudga kelish tarixi..... 6-32

1.2. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa Universitetlarning tashkiliy tuzilishi..... 33-38

II – bob . O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada fan va ta‘limni rivojlanishi.

2.1. Universitetlarda ta‘lim va o‘quv jarayonining tashkil etilishi... 39-45

2.2. Rivojlangan o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada fanning rivojlanishi.. 46-50

Xulosa..... 51-53

Tavsiyalar54

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yhati..... 55-56

Ilovalar..... 57-61

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil respublikamizning ijtimoiy fanlar sohasi olimlari oldida xalqimiz tarixini, shuningdek boshqa xalqlar tarixini haqqoniy va to'laqonli o'rganish masalasi eng muhim vazifa hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1998 yil 14-iyulda bir guruh tarixchi olimlar va yetakchi jurnalistlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda tarix fani, uning bugungi ahvoli va istiqbolini chuqur tashkil etish haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bildirib, bu yo'nalishda tarixchi olimlar oldiga qator vazifalarni qo'ydi. Birinchi Prezidentimiz takidlaganlaridek: "Albatta, tarixda kechgan voqealarning ibratli tomonlarini o'rganish, shu bilan birga, ularning salbiy jihatlarini ham yahshi bilish kerak. Eng muhimi, tarixni bilgan, o'rgangan odam, kim bo'lishidan qat'i nazar, ko'p narsadan xabardor bo'ladi"¹.

Ushbu vazifalardan eng muhimi - yangi jamiyatimizni isloh, qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, xozirgi davr talabi asosida yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, muximi, ular ongiga milliy istiqloq, Vatanga sadoqat va yurtparvarlik g'oyalarini yanada chuqurroq, singdirish va teran anglatishdan iboratdir.

Birinchi Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarida shunday yozadi: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu xaqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan.". Muntazam o'zgarib turadigan tarixiy jarayonlar sharoitida "O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada fan va ta'lim tarixi(XII-XV asrlar)" mavzusi bo'yicha, dastlabki universitetlarning vujudga kelishi, universitetlarning tashkiliy tuzilishi, universitetlarda ta'lim va o'quv jarayonining tashkil etilishi, rivojlangan o'rta asrlarda Yevropada fanning rivojlanishi kabi masalalarini yangi manba va adabiyotlar hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali o'rganish, tadqiq qilish mavzuni muhim jihati hisoblanadi.

¹ Islom Karimov. Hayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli har qanday yuksak marrani egallashga qodir. Toshkent-"O'zbekiston"-2016.B.9.

Ishining maqsad va vazifalari. Oʻrta asrlarda Gʻarbiy Yevropada fan va taʼlim tarixini yangi manba va adabiyotlardan foydalanib bitiruv malakaviy ish doirasida tahlil qilib yoritish maqsad qilib olindi.

Ishning maqsadi quyidagi vazifalarini ijrosini talab etadi:

- Dastlabki universitetlarning vujudga kelishi tarixini bayon etish.
- Universitetlarning tashkiliy tuzilishi jarayonini tahlil qilib chiqish.
- Universitetlarda taʼlim va oʻquv jarayonining tashkil etilishi.
- Rivojlangan oʻrta asrlarda Yevropada fanning rivojlanishi kabi masalalarni tahlil etish.

Ishning yangiligi va ahamiyati. Ushbu mavzu keng qamrovli boʻlib, bu mulohazalar tarix fani uchun dolzarb nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Mavzuning yangiligi shundan iboratki, Oʻrta asrlarda Gʻarbiy Yevropada dunyodagi dastlabki oliy ilim dargohlarining vujudga kelishi tarixi, universitetlarning tashkiliy tuzilishi, universitetlarda taʼlim va oʻquv jarayonining tashkil etilishi, rivojlangan oʻrta asrlarda Yevropada fanning rivojlanishi singari masalalarni hozirgi davirda tarix faniga qoʻyilayotgan zamonaviy talablar asosida tahlil qilib oʻrganishdan iboratdir.

Ishining amaliy ahamiyati shundaki, mazkur ish, bayon qilingan mavzuga maxsus ravishda bagʻishlangan boʻlib, oʻrta asrlarda Gʻarbiy Yevropada dastlabki universitetlar va fan va taʼlimni rivojlanishi va shu davrda Gʻarbiy Yevropani ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi va siyosiy tuzumi tarixini oʻrganishga oʻz hissasini qoʻshadi.

Toʻplangan maʼlumotlardan oily oʻquv yurti talabalari kurs ishi, referat, mustaqil ish, amaliy mashgʻulotlarda tayyorlanishda qoʻllanma sifatida foydalanishi mumkin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining tuzilishi quyidagilarni: kirish, toʻrtta bob, xulosa, adabiyotlar roʻyxati va ilovani oʻz ichiga oladi.

Ishni aprabatsiyasi. Bitiruv malakaviy ish Qarshi davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti “Tarix” kafedrasida qoshidagi “Yosh arxeolog” to’garigidagi yig’ilishda ma’ruza qilingan.

Ishning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, to’rt fasl, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo‘lib, ___ betni tashkil etadi.

I – bob. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada dastlabki universitetlarning vujudga kelishi va tashkiliy tuzilishi.

1.1. G‘arbiy Yevropada dastlabki universitetlarning vujudga kelish tarixi.

XII asr Yevropa tarixida muhim marra hisoblanadi. Bu vaqtga kelib bir qator ilg‘or mamlakatlarda hunarmandchilikning qishloq xo‘jaligidan ajralib chiqishi amalga oshib ulgurgan edi. Tez fursatlarda rivojlanayotgan shaharlarda texnika taraqqiyotida muvaffiqiyatlarga erishildi, tovar ishlab chiqarishi va pul muomalasi yuzaga keldi. Shahar aholisini o‘zini o‘zi anglashi va ijtimoiy faolligini o‘sishi, shahar doiralarini, katolik cherkovining boyliklari va siyosiy ta‘siriga qarshi noroziliklarida namoyon bo‘ldi. Shaharlarning taraqqiy etishi bilan birga feodal jamiyatining aqliy talablarida ham muhim siljishlar bo‘lib o‘tdi.

Muqaddas joylarga borib ziyorat qiluvchi, sayyoh ziyoratchilar – pilgrimlar va savdogarlar tomonidan ochilgan yo‘llarda, yangi yo‘lovchilar – sayyor shkolyar(vagant)lar paydo bo‘ldi. Ularning ilm izlab, yurtma-yurt kezishdan maqsadlari, Fransiya va Italiyadagi maktablar bo‘lib, bu joydagi mashhur o‘qituvchilardan, oldilariga hayot qo‘ygan savollarga javob topish bo‘lgan. Bu yoshlarning aqliy qiziqishlarining doirasi juda keng bo‘lgan.

Bu davrdagi shahar aholisiga xos bo‘lgan hayotni faol idrok etish va aql-idrokka asoslanib fikrlashni dastlabki kurtaklari, atrof olam qonunlarini anglashga intilishni keltirib chiqardi. Fransiyadagi Shartr shahri maktablari olimlari, bibliyadagi olamni yaratilishi to‘g‘risidagi afsonaga ishonish bilan birga, antik mualliflarni Olamni atomlardan tuzilgani to‘g‘risidagi ta‘limotni qo‘shib olib borishgan. Italiyadagi Salerno maktablarida cherkov ta‘limotiga butunlay qarama-qarshi ravishda odam anatomiyasi va fiziologiyasini tuzilishi to‘g‘risidagi tasavvurlar yuzaga keldi, bular esa amaliy meditsinani tez fursatlarda ravnaq topishini belgilab berdi. Bolonya maktablarida, shahar ehtiyojlariga bevosita bog‘liq tarzda rim huquqi qaytadan yuzaga keldi, bunda shahar aholisi oddiy tovar ishlab chiqaruvchilarni savlo munosabatlarini tartibga soladigan tayyor holdagi huquq normalarini topishdi. Shu bilan bir vaqtda shaharliklarning bilimga intilishlari, antik dunyoviy adabiyotga qiziqishni cherkov tomonidan belgilangan

chegarasidan o'tib ketdi. Bu qiziqishlarning markazidan biri aynan o'sha Shartr shahri bo'ldi, u joyda Bernard Shartrskiy va Gilyom Konshskiylarning o'quvchilari grammatika bilan shug'ullanish vaqtida antik she'riyat asarlari bilan tanishganlar va qadimgi davr tarixchilari haqida ma'lumotga ega bo'lishgan. Kelgusida Orlean mana shunday markaz bo'lib qoldi, adabiyotdagi shuhrati va she'riyatga bo'lgan qiziqishi uchun bu shahar Parnas deb nom oldi. Bu vaqtda Pyer Abelyarning asarlarida cherkovning obro'si va nufuziga qarshilik ko'rsatish yaqqol namoyon bo'ldi.

Shakllanayotgan universitetlarning markazlari, Yevropa xududiga Sisiliya va Toledo orqali kirib kelgan grek-arab falsafasi va fanining ta'siriga moyil ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu intellektual (ma'naviy) oqimda, grek va arab tillaridan tarjima qilingan Aristotel (Arastu) ning asarlari, asosiy o'rinni egallagan. Uzoq o'tmishning mutafakkiri, hurfikr (erkin fikrlovchi) bu odamlarning ittifoqchisiga aylandi. Aristotelning obro'siga tayanib, ular cherkov bilan muboraza (yakkama-yakka kurash) ga kirishdilar hamda olamning yaratilishi va ruhning abadiy (mangu) ligi to'g'risidagi diniy haqiqatlarni tanqid ostiga olishga urinishdi.

Ilm yo'lida stixiyali (tartibsiz) ravishda amalga oshirilgan bunday ziyoratlarning natijasida, shaharliklar, mayda risarlar va ruhoniylarning quyi toifasi vakillari orasidan kelib chiqqan yoshlarning, Bolonya, Parij, Monpelye, Oksford va boshqa shu kabi ayrim maktablarning markazlarini atrofida to'planishida namoyon bo'ldi. Ijtimoiy xizmatlar va oddiy xavfsizlikni yo'qligi, shaharlarning xokimiyati bilan mahalliy cherkovlar o'rtasida adovat va dushmanlikning mavjudligi, o'qituvchilarni hamda ularning o'quvchilarini bir-birlariga yordam berish va o'z haq-huquqlari uchun kurashish maqsadida assosiasiya (universitas) larga birlashishga majbur etadi. Hunarmandchilik va savdogarlarning gildiya (o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada yirik savdogarlar yoki hunarmandlar birlashmasi) larni namunasida uyushib, bu uyushmalar korporativlikka erishishga, ya'ni oliy xokimiyat tomonidan tasdiqlangan: umumiy mulk, saylab qo'yiladigan mansabdor shaxslarga, assosiasiya a'zolarining o'zlari tomonidan tuzilgan statut (nizom, ustav) larga, muhri, o'z sudiga ega bo'lish huquqiga ega bo'lishga intilgan. Bu

huquqlar uchun kurash o'n yillar mobaynida davom etdi, "universitet" atamasiga xuddi "kommuna" so'zi singari, yomon ko'z bilan, sovuq munosabatda qaralgan. "Universitet" atamasi dastlab faqat studentlarning uyushmalariga taalluqli bo'lgan, o'qituvchilarning uyushmalari esa "kollegiya" deb nomlangan. Universitetlarning tuzilishi, tashkil topishini ilk davri, kelgusida uning tarixida chuqur iz qoldirdi. Aynan mana shu davrdan boshlab studentlarning birdamligi va erkin fikrlash an'analari, o'zini-o'zi boshqarish, talabalar orasida vatan(yurt)doshlar uyushmalarini o'zini-o'zi boshqarish muxtoriyati singari rasm-rusumlari davom etib kelmoqda. Universitetlarning XIII-XIV asrlarda, kelgusidagi rivojlanishi shu narsa bilan belgilanadiki, feodal jamiyatning asosiy siyosiy kuchlari ularning mavjudligini tan olishdi va universitetlarning faoliyatidan, o'zlarining manfaatlari yo'lida foydalanishga ishtilishdi.

Ilk universitetlar tarixiga oid muhim muammolardan biri, katolik cherkovi, imperator va qirol xokimiyatlari tomonidan ularni tan olinishi masalasi hisoblanadi. Biz ta'kidlab o'tayotgan madaniy harakat, aftidan, XIII asrdayoq ortga qaytmas jarayon belgilariga ega ekanligi ko'rinib qoldi. Shahar hayoti taraqqiy topgan mamlakatlarda boshlanib, bu jarayon kelgusida u yoki bu darajada butun Yevropa bo'ylab yoyildi². 1265 yildayoq Bolonya shahridagi universitetda 13 ta vatandoshlar uyushmalari mavjud bo'lib, uning tarkibiga katoloniyaliklar, gaskoniyaliklar, venger, polyak, shuningdek, german uyushmasi bo'lib, uning tarkibiga cheklar, flamandlari, litvaliklar va daniyaliklar kirgan. XIV asrda yashab o'tgan zamondosh kishi, Praga universitetining mashhurligi to'g'risida qoldirgan yozma bayonida, universitet tarbiyalab yetishtirgan kishilar orasida, polyaklar va slovaklar, prusslar va ruslar, Skandinaviyalik musofirlar va Reyn qirg'oqlarida yashovchi aholi vakillari bo'lganligini ma'lum qilgan. Madaniy sohada bo'lib o'tgan oldinga siljishlarni ahamiyatini beqiyos ekanligi to'g'risida studentlar uyushmalarining son jihatdan o'sib borganligi ham guvohlik beradi. Agarda,

²Суворов Н.С. Средневековые университеты. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012, с.52.

bolonyalik huquqshunos Odoferd, XIII asr boshlarida Bolonya universitetida 10 mingta student ta'lim olgan deb guvohlik berib ta'kidlagani bo'rttirib ko'rsatilgan deb hisoblansada, studentlarning ro'yxatlarini o'rganishga asoslangan qo'yidagi hisob-kitoblar hech qanday shak-shubha uyg'otmaydi: faqat 1289 yildan 1299 yilga qadar Bolonya universitetidagi german uyushmasiga 533 nafar student qo'shimcha ravishda ro'yxatga olingan bo'lsa, XIV asrning dastlabki o'n yilligi mobaynida esa, yana 1259 nafar student ro'yxatga olingan. 1367 yilda Parijdagi to'rtta studentlar uyushmalaridan faqat bittasidagi (fransuz yoki gall) talabalarning soni 654 nafarga yetdi.

Yevropa universitetlaridagi studentlarning miqdoriy tarkibi.

Universitetlar

Yil-lar	Praga universiteti (Chexiya)			Krakov universiteti (Polsha)		
	Studentlar	Bakalavrlar	Magis-trlar	Studentlar	Bakalavrlar	Magistrlar
1399-1408	4000	852	182	904	95	20
	Geydelberg universiteti (Germaniya)			Kyoln universiteti (Germaniya)		
	Studentlar	Bakalavrlar	Magistrlar	Studentlar	Bakalavrlar	Magistrlar
1466	140	65		824	60	65

Universitetlarni tan olinishining muhim sababi, shubhasiz, ular ham cherkov uchun, ham davlat uchun zarur bo'lgan. XIII – XV asrlarda, rivojlangan o'rta asrlar davrini kirib kelishi va markazlashgan monarxiya davlatlarining tashkil topishi bilan, yuqori malakali huquqshunos, yilnomachi va diplomatiya sohasi uchun mutaxassislariga bo'lgan talab ortib bordi. Katolik cherkovi tajribali va o'qimishli voiz, din targ'ibotchilariga, cherkov huquqini bilimdonlari va shu kabilarga ehtiyoj seza boshladi. Oddiy xalq tarafdorlarining rahnamolari, xudo o'z bandalarini teng qilib yaratgani haqidagi g'oyalari bilan bir qatorda, barcha fuqarolarni tengligi,

hatto bir qadar mulkiy jihatdan tengligi to'g'risidagi g'oyalarni ham ilgari surdi. Byurgerlar(Germaniya va boshqa ba'zi mamlakatlardagi shahar aholisi)ning nazariyotchilari ham katolik cherkovini qattiq tanqid qiladi va hatto papa hokimiyatini tahdid ostiga oldi. Bunday sharoitlarda ham cherkov, ham davlat teng darajada shu narsaga intilishdiki, yangi universitetlarda o'qimishli ruhoniylar, kadr(yetuk xodim)lari tarbiyalanib, ularning asosiy vazifasi, kelgusida halqqa xokimiyat tepasida turganlarni ilohiy, yuqoridan ekanligini tushuntirishdan iborat edi. Shu bilan birga, qirol hokimiyati ham, cherkov ham, yangi muassasalarning avtoriteti(obro'-e'tibori, nufuzi) va yetuk xodimlarini o'zlarining siyosiy maqsadlari uchun foydalanishga intilishdi.

Dunyoviy va diniy hokimiyat o'rtasidagi siyosiy kurashga universitetlarni jalb etishga urinish eng avvalo Italiya negizida, Shtaufenlar bilan papalar o'rtasidagi to'qnashuvlarda, ko'rindi. Kelgusida esa ular, butun G'arbiy Yevropa bo'ylab keng ko'lamda namoyon bo'ldi, modomiki, qirol hokimiyati hamma joyda shakllanayotgan markazlashgan davlatlarning zarurati uchun, papalik esa – o'zining teokratik (diniy hokimiyatni dunyoviy hokimiyatdan ustunligi) dasturini hayotda amalga oshirish uchun, universitetlardan foydalanishga intilgan.

Bu holat universitetlarning kelgusidagi taqdirida namoyon bo'lmasdan qolmadi. XVI asr boshlariga qadar Yevropada vujudga kelgan 79 ta universitetlardan 50 nafariga rasman papalar tomonidan asos solingan edi.

Katolik cherkovi ulkan o'quv materialini tanlash va kanonizasiya(qonuniy tasdiqlab amalga joriy etish, ruxsat berish) qilish vazifasini o'ziga oldi va so'ngra barcha universitetlarda o'qitiladigan bo'ldi. Tanlash jarayoni keskin kurashlarda bo'lib o'tdi, uning davomida cherkov, universitet ilm-fanining dastlabki vakillari bilan bir qatorda Aristotel(Arastu)ning "Metafizika" sini ham gulxanga tashladi. O'sha paytdagi amaliy ehtiyojlarga ko'p jihatdan javom bergan yuridik(huquqshunoslik) va medisina(tibbiyot) fakultetlarining faoliyat yuritishi masalasida murosaga kelgan cherkov asosiy zarbasini "erkin san'at" lar fakultetlariga qaratdi, chunki XIII-XIV asrlarda aynan ular erkin fikrlashning markazlari sifatida qolaverdi.

“Har kimki bilsa, barchaning o‘qituvchisi”ga aylanib ulgurgan Aristotelning asarlari soddaligi va tushunarligi hamda mashhurligi tufayli, cherkov uning asarlarini o‘rganish uchun ruxsat etishga majbur bo‘ldi. Biroq, ruxsat berilganidan keyin ham teolog(ilohiyotchi, din bo‘yicha mutaxassis) va logik(mantiqchi)larning Aristotel falsafasini xristian cherkovi tradisiya(an‘ana, rasm-rusum)lariga bo‘ysundirish uchun ko‘p sonli urinishlar bo‘lib o‘tdi, uning falsafasidagi jonsizni olib, jonlini yo‘q qilishgan. Shu bilan birga cherkov, universitetlar aqliy hayoti markazini teologiya(ilohiyot) va diniy huquqlar fakultetlariga ko‘chib o‘tishiga erishishga urindi.

Universitetlar tarixini boshlang‘ich davridayoq cherkov yozuvchilari, o‘z ta‘limotlarining sistema(tartib)ga solish va ommalashtirishga intilishib, diniy haqiqat to‘g‘risidagi fikrga qat‘iy ishontirish uchun Abelyarning asarlarida shakllangan haqiqatni isbotlashni dialektik usulidan foydalanishdi. Masalan, bolonyalik ruxoniy Grasian tomonidan 1140 yilda kanon(diniy, muqaddas, qoidaga aylangan) huquqni sistema(tartib)ga solish(Grasian va uning davomchilarini asarlari kanon-diniy huquq fakultetlarida asosiy o‘quv matni hisoblangan) va Abelyarning shogirdi, ajoyib, misli yo‘q “Sentesiylar” larning (Sentensiylar bibliyaga qo‘shib universitetlarning ilohiyot fakultetlarida o‘qitilgan)muallifi Petr Lombard(1106-1164) tomonidan xudo va troisa(xristian dinida ota xudo, o‘g‘il xudo va muqaddas ruhdan iborat yagona xudo) hamda ilohiy taqdir(qismat) to‘g‘risidagi ta‘limotni asoslash uchun ushbu usuldan foydalandi³.

Yuzlab olimlar, cherkovni manfaatlarini va feodal olamini tinchligini ko‘zlab, aql-idrok va e‘tiqod o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida, universitetlarda mehnat qilishdi. Biroq ular universitet ilm-fanini uning o‘ziga xos bo‘lgan murakkablik va antogonizm(kelishtirib bo‘lmaydigan qarama-qarshilik)lardan mahrum qila olmadi. Bu holatlar universitetlarda saqlanib qolib, ruxoniylar, risarlar va shahar aholisining bilimga bo‘lgan qiziqishlariga, hatto

³ Суворов Н.С. Средневековые университеты. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012, с.62-63.

rasmiy mafkuraga ham ta'sir ko'rsatishda davom etdi. XIII-XIV asrlarda "erkin san'at"lar fakultetlari, rasionalizm(tafakkurni hissiy tajribadan ajratib qo'yadigan va aqlni bilishning birdan-bir manbai deb hisoblaydigan falsafiy oqim) va erkin fikrlashning markazlari bo'lib qolaverdi. Abelyar vaqtidagi singari, Yevropaning barcha chekkalaridan barcha yoshlar ommasini huquqshunoslik hamda tibbiyot fakultetlari singari o'ziga "tuzoq va zanjir" singari jalb etadigan dunyoviy fanlar muhim ahamiyat kasb etdi. Tibbiyot va huquqshunoslik singari amaliy fanlar, ilohiyot fanlari bilan bema'lol raqobatlasha olgan.

Shakllanib ulgurgan universitetlarning tashkiliy tuzilishi ma'lum bilan qarama-qarshiliklari bilan ajralib turgan. Papaning Bolonya va Parij universitetlariga nisbatan bo'lgan munosabatini taqqoslaganda shu narsa ma'lum bo'ladiki, dastlab papalik ularning muxtoriyatiga ehtiyotkorlik bilan, xavfsirab qaradi va bu tashkilotlarning demokratik an'analarini yo'q qilishga urindi. Masalan, Gonoriy III 1217-1224 yillarda Bolonya universiteti studentlari uyushmalarining mustaqilligini rag'batlantirdi va shu bilan bir vaqtda, 1222 yilda Parij universitetida studentlarning yig'ilishlar o'tkazishlarini taqiqladi va hatto 1225 yilda ularning muhrini, mustaqillik belgisi sifatida sindirib tashlash to'g'risida buyruq berdi.

Kelgusida esa, universitetlarga nisbatan papalikning siyosati o'zgardi. Buning uchun, papa Grigoriy IX ning 1231 yil 13 apreldagi mashhur bullasi "Parens scientiarum" o'ziga xos bo'lib, u Parij universitetini muxtoriyatini va mahalliy hokimiyatlarga qarshi ish tashlashlar o'tkazish huquqini tasdiklagan, Bonifasiy VIII ning tutgan nuqtai nazari ham xuddi shu singari bo'lgan, u 1301 yilda Bolonya universitetida rektorni ularga sodiqlik to'g'risida qasamyod qilishini talab qilib mahalliy xokimiyat bilan bo'lib o'tgan bahs-tortishuvlarda, studentlarni qo'llab-quvvatlagan. Ushbu siyosatda, papalikning mahalliy dunyoviy va diniy xokimiyatlarning aralashuvidan universitetlar uyushmalarining mustaqilligini saqlab qolish, turli imtiyozlar orqali ularni jamiyatning qolgan qismidan ajratib qo'yishni payiga tushganligini kuzatish mumkin.

Amalda esa universitetlarning erkinligini saqlash Rimning maqsadi bo'lmagan, balki ularga o'zining ta'sirini o'tkazishni vositasi bo'lgan. Mahalliy hokimiyatlarni chetlab o'tib, papalik, shaxsan o'zi universitetlarga rahbarlik qilishga intildi, va aytish lozimki, bunda ma'lum bir natijalarga erishdi. Faqat Gonoriy III o'zining 10 yillik pontifikatligi mobaynida 82 marta Parij universitetining ishlariga aralashdi, papa Grigoriy IX 1227 yildan 1241 yilga qadar universitet ishlari yuzasidan 46 ta farmoyish chiqardi, Aleksandr IV esa 1254 – 1261 yillar mobaynida universitetlar bo'yicha 87 ta farmoyish qabul qildi. Rim kuriyasini (Rim papasi xokimiyatining markaziy organi) universitetlardagi mavqeini mustahkamlash maqsadida, cherkov tomonidan o'qituvchi va talabalarga benefisiy (in'om, hayr-saxovat) lar berish tizimi ulkan ahamiyatga ega bo'la boshladi, bu esa universitetlar a'zolarini papalikdan moddiy jihatdan qaramga aylantirib qo'ydi. Bu holat shunga olib keldiki, ilohiyot fakultetlarida, kanonik (diniy) va bir qadar fuqarolik huquqi fakultetlarida, kelgusida oliy diniy iyerarxiya (tabaqa) saflarini to'ldiradigan kishilar ta'lim-tarbiya ola boshladi.

Papalik, o'z xokimiyatining universal xususiyatga egaligidan foydalanib, bir universitetda daraja olgan magistrga, kelgusida boshqa universitetlarda ham dars berishiga ruxsat etish huquqini o'ziga o'zlashtirib oldi. Shu holatni ta'kidlash lozimki, papalik bu huquqni in'om etishda o'zboshimchalik, zo'ravonlikka yo'l qo'yan: Yevropadagi eng dastlabkilaridan hisoblangan Oksford universitetiga hech qachon "barcha joyda o'qitish huquqi" berilmagan. Kembridj universiteti esa faqat 1318 yildagina bu huquqni qo'lga kiritdi⁴. Ruhoniylar orasidan tayinladigan kansler (oliy martabali ruhoni) va imtiyozlarni asrovchi (konservator) lar, universitetlarda papalikning vakillari hisoblangan. Qashshoqlikda yashovchi diniy ordenlar vakillari ham papalikning manfaatlarini himoya qilgan bo'lib, ularni universitetlarda faoliyat ko'rsatishlari bu joylarda ilmiy salohiyatni pasaytirib

⁴ Pirimqulov Shodmonqul. O'rta asrlarda Angliya (O'quv qo'llanma). – Toshkent O'zbek milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003, 146-bet.

yuborgan. Nixoyat, agarda talabalar va ularning o'qituvchilari bo'ysunmasdan qo'yg'an taqdirda, ularni universitetdan chetlatish tizimi xarakatga keltirilgan. Shunday qilib, Rimdan boshqarilgan katolik cherkovi, universitetlarni o'ziga bo'ysundirilgan holda tutib turish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rgan.

Biroq, bu holat barcha joyda ham amalga oshmagan, chunki qirol va imperator hokimiyati, shahar kommunalari ham universitetlarga o'z ta'sirini o'tkazishga xarakat qilishgan. Shaharlar, papalik va dunyoviy xokimiyat oldidagi o'z huquqlarini nazariy jihatdan asoslash uchun universitetlardan foydalanishga urinishgan. Shaharlar xazinasidan professorlarga maosh, ish haqi to'lash orqali universitetlar bilan shaharlar o'rtasidagi ittifoqlar mustahkamlangan.

Qirol xokimiyatini universitetlarga nisbatan bo'lgan qiziqishlari to'g'risidagi dastlabki hujjatlar, Fridrix Barbarossa tomonidan 1158 yilda Bolonya universitetiga taqdim etilgan yorliqhamda Filipp II Avgustni 1200 yilda Parij universitetiga topshirgan yorlig'i bo'lib, bu bilan yevropa xukmdorlarining "universitet" siyosatiga asos solingan. Universitetlar, feodal tuzumga g'oyaviy qarshi chiqish ko'rinishlari bilan kurashga boshchilik qilishi masalasida cherkov bilan batamom kelishib olgan dunyoviy hokimiyat, shu bilan bir vaqtda, aynan universitetlar, rim huquqi normalariga tayanib, qirollarni "yustiniancha beaybli" ni asoslashlari va feodal zodagonlari hisobiga qirol prerogativasini, agar zarur bo'lsa, katolik cherkovini mavqeini kengaytirishga ko'maklashishi lozim edi.

Universitet talabalari orasidagi ko'plab odamlarga, boshqaruv organlaridagi ma'muriy va sud ishlariga oid lavozimlarni qirol hokimiyati, har doim bajonidil taqdim etgan. Shuning uchun ham qirol xokimiyati, XIV asr va XV asr boshlarida universitetlarni qirollik milliy muassasalariga aylantirishga intildi. Haqiqatda ham, markazlashgan davlatlarning taraqqiyotida yuz bergan ijobiy siljishlar, amalda universitetlarni milliy madaniyatlarni rivojlanishidagi oqimga soldi.

Qirol hokimiyati ham, katolik cherkovi ham, shaharlar xokimiyati ham universitetlarni moddiy jihatdan to'la qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lmagan. Universitetlar dastlabki vaqtlarda uzoq vaqtga qadar, o'zlarining xususiy binolari, kutubxonalari, talaba va o'qituvchilarni yashashlari uchun turar-joylariga

egabo'lmagan. Shuningdek, shuni ko'zda tutish lozimki, XIII asrning o'rtalarida, cherkov benefisiylari yoki dunyoviy xokimiyat tomonidan beriladigan maosh yordamida universitetlar o'qituvchilarining ish haqini to'lashni ma'lum bir tizimi mavjud edi. Ko'plab universitetlarda, o'qituvchining talaba bilan tuzgan xususiy shartnomasi asosida maosh to'lash tizimi saqlangan edi. Statutlarning varaqlarini guvohlik berishicha, XIV asrda ayrim ma'ruzalar uchun narxlar taksasiyasi(baholarni belgilash) mavjud bo'lib, talabalar bularga amal qilishlari kerak bo'lgan. Universitetlardagi ko'pchilik o'qituvchilarning ish haqlari, cherkov yoki dunyoviy xokimiyat tomonidan emas, balki talabalarning to'lovlari(kontrakt) hisobiga amalga oshirilgan. Aynan mana shu o'qituvchilar, ularning olimligi o'zlari ko'zlagan manfaatlarni va jamiyatda ularga yuqori mavqeni keltirmagani uchun, oppozisiya kayfiyatdagilarni qarashlarini ifodalovchilarga aylanishdi.

Universitetlarni vujudga kelishi bilan feodal jamiyatga birinchilardan bo'lib studentlar kirib keldi. Feodal davr studentlari ko'plab tillarda so'zlashuvchi ommadan iborat bo'lib, ular har bir universitet doirasida millati va kelib chiqqan yashash joylari bo'yicha ajralib turishgan. Studentlar jamoalari iyerarxiya(toifa)lardan iborat bo'lib, bu holatni oliy ta'lim to'g'risidagi hozirgi tushunchalardan kelib chiqqan holda, anglash biroz mushkul bo'ladi. Ushbu iyerarxiya pog'onasidagi eng quyi darajani san'at fakultetlarining studentlari egallab, bularda uchta yuqori darajali ilohiyot, huquqshunoslik va tibbiyot fakultetlari uchun bo'lg'usi studentlar tayyorgarlik o'tashgan.

Yuqori darajali fakultetlarning studentlari, ularning ayrimlari san'at fakultetlarida o'qib darajaga ega bo'lib, shuningdek ham yoshini kattaligi, ham ijtimoiy mavqeini yuqoriligi bilan, artistlik fakultetlarida o'qiyotgan o'zlarining kasbdoshlaridan ajralib turishgan. Studentlar keng miqyosdagi xilma-xil ijtimoiy qatlam ekanligi bilan ajralib turishgan. Universitetlarda ko'p sonli ruhoniylar vakillari bo'lib, ular ko'pincha cherkovda yuqori lavozimlarni egallashgan. Shuni aytish kifoya qiladiki, XIII-XIV asrlardagi deyarli barcha papalar o'z kasb yo'lini universitetlarda ilohiyot yoki huquqshunoslik fakultetlarida boshlashgan. U vaqtlarda universitetlarda feodal zodagonlarning vakillari kam sonli bo'lgan, ushbu

holat ularni hayot tarzidagi konservatizm(eskilikni yoqlash, eskilikka yopishib olish, yangilikka dushmanlik, mutaasiblik) bilan izohlanib, ular universitet ma'lumotiga ega bo'lmagan ham davlat xizmatida yuqori lavozimlarni egallash huquqiga ega bo'lishgan.

Studentlar orasida shahar muhitidan kelib chiqqanlar ko'p bo'lgan. Masalan, Praga universitetini san'at fakultetida imtihon topshiruvchilar, 1399-1408 yillarda Pragaliklar 12,5 % ni, Chexiyani qirollik shaharlaridan kelib chiqqanlar – 26% ni, chex shaharlari fuqarolari – 28, 57% ni tashkil etgan. Barcha universitetlarda ancha ko'p sonli kambag'al studentlar bo'lgan, ular "qashshoqlik to'g'risidagi imtiyozlar" ga ko'ra o'qishga kirish va boshqa pul to'lovlarini amalga oshirishmagan. Leypsigda 1409 yildan 1419 yilgacha bunday studentlar 18% ni, Kyolnda 1395 dan 1465 yilgacha 16% ni tashkil etgan. Parij universitetidagi angliyalik studentlar orasidagi bakalavrlardan 17% i 1425 dan 1494 yilga qadar kambag'alligi tufayli barcha to'lovlardan ozod etilgan, 46,84% i eng kam to'lovni amalga oshirgan, 26% i esa o'rtacha to'lovni amalga oshirgan.

Studentlarning yozgan xatlarining namunalaridan ma'lum bo'lishicha, uyidan jo'natilgan yordam va hayr-saxovat hamda ehson ko'pchilik studentlar uchun yashash vositasi bo'lgan. Studentlarning ayrim toifasini qirol xokimiyati moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Masalan, Angliyada Genrix III ning xukmronligi vaqtida, qirollik xizmatida o'zini ko'rsatgan risarlarning farzandlari, qirolning qarindoshlari va Genrix III bilan siyosiy ittifoq tuzgan boshqa mamlakatlar(masalan, Sisiliya)dan kelgan musofirlar, qirolning moddiy yordamidan foydalanishgan. Biroq, ushbu xolatlarda ham yordam doimiy va pul tarzida bo'lmagan, balki vaqti-vaqti bilan qilinadigan in'om-hadya(ovlangan qush go'shti yoki qirollik o'rmonlaridan keltirilgan yoqilg'i - o'tin)dan iborat bo'lgan. Studentlarning bir qismi cherkov benefisiylaridan foydalanishgan.

Ilmiy darajalarni berish maxsus saylab qo'yiladigan magistrLAR tomonidan amalga oshirilgan. Biroq, ilmiy daraja olgan shaxslar, bunday tashqari, cherkov hokimiyatidan "o'qitish huquqi" ni olishi lozim bo'lgan. Bolonyada arxidiakon, Parijda esa kafedral cherkov kansleri tomonidan ruxsat etilgan.

Shunday qilib, universitetlarning vujudga kelishi bilan feodal jamiyatning madaniy hayotida ortga qaytmas siljishlar yuz berdi. Yevropada dunyoviy intelligensiyaning shakllanishini uzoq va murakkab jarayoni boshlandi, cherkov esa o'zining ta'limga bo'lgan monopoliyasi(tanho huquqi) ni yo'qota boshladi. Feodal Yevropasining ijtimoiy hayotida universitetlarning mavqei ortib bordi. Universitetlardan ma'lumotli ruxoniylar va davlat amaldorlari yetishib chiqqan. Universitetlarda turli xalqlarning farzandlari va turli avlodlarning vakillari tahsil olgan. Bu ta'lim maskanlaridagi mutafakkirlarning ilg'or g'oyalari ta'siri ostida XIII-XV asrlardagi ilg'or fan va ijtimoiy tafakkur rivojlandi.

O'rta asrlar maktabi antik davrdan meros qolgandi. Uning asosi «yetti erkin san'at» deb atalgan. Maktabning birinchi pog'onasida: grammatika "barcha fanlarning onasi" hisoblangan, dialektika rasman mantiqiy bilimlar bergan, falsafa va mantiq asoslari, ritorika esa aniq, ravon dona-dona qilib gapirishni o'rgatardi. Matematika, arifmetika, musiqa, geometriya va astronomiya bilim olishning ikkinchi davrasi hisoblanardi.

O'rta asrlar madaniyati xilma-xilligi bilan farq qilardi va yangi zamon madaniyatining yaratilishida muhim rol uynadi. O'rta asr Yevropasi oliy ta'lim shakli bo'lgan universitetlarni tashkil qildi. Bu universitetlarda o'sha vaqtning hamma maorifi to'plangan bo'lib, u cherkov-diniy masalalar bilan cheklanmagan edi. Qadimgi falsafa, ayniqsa Aristotelning asarlari, Rim huquqi, lotin adabiyotlarini o'rganish o'rta asr fanlarining antik dunyo fanlari bilan bog'liq ekanligidan darak beradi⁵.

G'arbiy Yevropada XII—XIII asrlarda iqtisodiy va madaniy yuksalish boshlandi. Shaharlar taraqqiyoti, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi yevropaliklar dunyoqarashining kengayishiga yordam berdi. Salib yurishlari davrida Vizantiya va Arab xalifaligi madaniyatlari bilan tanishuv O'rta asr maorifining kamol topishini rag'batlantirdi. O'rta asr maktablarining soni o'sib,

⁵Fomchenko A.P. "O'rta asrlar tarixi" kursiga doir metodik ko'rsatmalar. "O'qituvchi", Toshkent, 1973, 100-101 betlar.

ta'lim tizimi takomillashib bordi. Maktablar: - monastirlar, shahar soborlari(kafedral) va prihod(mahalla) – maktablariga bo'lingan. Shaharlarning o'sishi bilan xususiy va shahar kengashlari hamda gildiyalar tomonidan ochilgan maktablar ko'paydi. Ularda cherkov maktablariga nisbatan kengroq va chuqurroq bilim berila boshlandi. Maktablarda ta'lim lotin tilida olib borilgan, faqat XIV asrda milliy tillarda o'qitiladigan maktablar paydo bo'ldi.

Yevropaning yirik shaharlarida XI asrdan boshlab, kafedral maktablar umumiy maktablarga aylanib, ularning negizida esa oliy maktablar — universitetlar ochila boshladi. Universitet (lotincha so'z bo'lib, «majmua» ma'nosini anglatadi) umumiylik ma'nosini berib, unda turli sohalar birlashtirilgani tufayli shunday deb atalgan. XII asr oxirida birinchi universitet Bolonyada ochildi, keyinchalik universitetlar XIII asrda: Monpele, Palermo, Parij, Oksford, Salerno, Salamanka va boshqa shaharlarda tashkil topdi. Umuman, XV asrga qadar Yevropa mamlakatlarida 60 ga yaqin universitet ochilgan.

O'rta asrlarda oliy ta'limni o'rta maxsus ta'limdan ajratish tizimi shakllanmagan edi. O'quvchi odatda, boshlang'ich maktabda lotin tilini o'rgangach, 15-16 yoshida universitetga o'qishga kirgan. Universitet quyidagi: san'at fakulteti(bu fakultet odatda o'rta maktab vazifasini bajarib tayyorlov kursi hisoblangan) va uchta yuqori – huquq, tibbiyot va ilohiyot fakultetlaridan iborat bo'lgan. San'at fakulteti keyinchalik falsafa fakulteti deb nomlanib, u joyda yetti erkin fanlar: dastlab trivium – grammatika, ritorika, dialektika, so'ngra esa kvadrivium – arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa o'qitilgan o'qitilgan⁶.

Universitetlar yuridik, erkin boshqaruv(ma'muriy) va moliyaviy mustaqillik huquqlariga ega bo'lib, bu haqdagi yorliq qirol yoki Rim papasidan olinardi. Universitetlar mustaqilligi, uning ichki hayotida tartib-qoidalarga, intizomga qattiq rioya qilishi bilan mujassamlashgan. Universitet fakultetlarga bo'lingan. Eng quyisi artistlik(lotincha *artes* - san'at) fakulteti bo'lib, unda o'qish barcha studentlar uchun majburiy bo'lib, ushbu fakultetda “yetti erkin

⁶Советская историческая энциклопедия. В 16-ти томах. Т.14, Москва, 1973, стр. 808

san'at"(grammatika, ritorika, dialektika yoki logika, arifmetika, geometriya, geografiya, astronomiya va musiqa) to'la hajmda o'qitilib, so'ngra huquqshunoslik, tibbiyot va ilohiyot fakultetlari bo'lgan(ilohiyot fakulteti barcha universitetlarda ham mavjud bo'lmagan). O'rta asrlardagi eng yirik universitet Parijda bo'lgan. Unga 1257-yili fransuz qiroli xonadoni ruhoniysi Rober de Sorbon asos solgan. Demak, hozirgi kunga qadar mashhur Sorbonna universiteti shu tariqa tashkil topgan. G'arbiy va Markaziy Yevropalik talabalar shuningdek Ispaniya va Italiyada ta'lim olishgan. Kordova, Sevilya, Salamanka, Malaga va Valensiyadagi maktablar va universitetlarda falsafa, matematika, medisina, astronomiya, Bolonya va Paduyada esa huquq bo'yicha keng va chuqur bilimlar berilgan.

Universitetda alohida fan o'qituvchilari yig'ilib o'z birlashmalarini, fakultetlarni tuzib, unga dekan saylaganlar. o'qituvchi va studentlarning umumiy yig'ilishida universitet rahbari — rektor saylangan.

XIV-XV asrlarda universitetlarning geografiyasi ancha kengaydi. Kollegiyalar(kollej so'zi shundan olingan) ancha rivojlandi. Dastlab studentlarning yotoqxonasi mana shunday deb ataldi, lekin kollegiyalar asta-sekin mashg'ulotlar, ma'ruzalar, ochiq munozaralar markazlariga aylandi. 1257-yili fransuz qiroli xonadoni ruhoniysi Rober de Sorbon asos solgan kollegiya ham asta-sekin o'sib, kengayib borib, o'z mavqeini mustahkamladi, uning nomi bilan butun Parij universiteti nomlana boshladi.

O'rta asr universitetlarida dars lotin tilida olib borilgan. Universitetda dars berishning asosiy usuli professorlar ma'ruzasi edi. Ilmiy aloqa qilishning tarqalgan shakli, ilmiy tortishuv yoki ochiq munozaralar bo'lib, bunday ilmiy tortishuv va ochiq munozaralar vaqti-vaqti bilan teologiya-falsafiy mavzularda bo'lardi. Ilmiy tortishuvlarda asosan universitetlarning professorlari qatnashardilar. Lekin sxola(student)lar uchun ham shunday ilmiy tortishuvlar o'tkazilib turilardi(sxolalar – studentlar schola lotincha so'z bo'lib, maktab demakdir).

Universitetlar, G'arbiy Yevropada dunyoviy intelligensiyaning shakllanishi jarayonini, jadallashtirdi. Universitetlar, bilimlarning haqiqiy o'chog'i bo'lib, jamiyatning madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Biroq XV asrning

oxirlariga borib, universitetlar aristokratlashdi, ya'ni unda aslzodalar soni ko'paydi, u joydagi studentlar, o'qituvchi(magistr)lar va professorlarning ko'pchiligini jamiyatning imtiyozli tabaqalari vakillari tashkil etdi. Birmuncha vaqt konservativ kuchlar universitetlarda ustun keldi⁷.

Maktab va universitetlarning ko'payishi kitobga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Ilk O'rta asrlarda kitob qimmatbaho buyum bo'lib, uni pergamentga — buzoq terisidan tayyorlangan maxsus varaqlarga xattotlar yozishgan. XII asrdan kitobatda alohida ustaxonalar ochilishi ularning birmuncha arzonlashuviga olib keldi. XIV asrdan qog'ozning keng qo'llanilishi esa, uni yana ham ko'proq chiqarishga yordam berdi. Qog'oz Xitoydan musulmon davlatlari, jumladan, Samarqand orqali Yevropaga kirib keldi. Ispaniyada dastlabki qog'oz ustaxonalari XII asrdan ishga tushgan. Keyinchalik, XIV asrdan Italiyada qog'oz ishlab chiqarish sohasi keng rivojlandi. Yevropadagi dastlabki ustaxonalar qog'ozni eski lattalardan qilishgan.

Germaniyada 1445-yili Iogann Guttenberg kitob bosish dastgohini kashf etdi. Uning kashfiyoti kitobning ommaviy tarqalishiga imkoniyat yaratib, Yevropa madaniy hayotida katta o'zgarishlarga olib keldi. XII asrga qadar kitoblar asosan cherkov kutubxonalarida mujassamlangan bo'lsa, XII-XV asrlarda esa universitetlar, qirollarning saroylari, yirik feodallar, ruhoniylar va badavlat shaharliklarda ham ko'p sonli kutubxonalar paydo bo'ldi.

Vizintiya imperatori Yustinianning buyrug'i bilan tuzilgan rim huquqlari to'plamini uzoq vaqtga qadar beparvolik bilan o'rganilmagani, XII asr boshlarida Bolonyada rim huquqiga qiziqish yuzaga kelganida, grafinya Matildaning iltimosiga ko'ra Irneriy ismli kishi Yustinian to'plamini qaytadan to'plab, tiklagani ma'lum qilinadi. Shuning negizida Bolonya universiteti vujudga keldi.

Italiyadagi Salerno shahrida joylashgan tibbiyot maktabi mazkur sohaga oid kuchli mutaxassislarni o'qitib, yetishtirishi bilan dong chiqargan edi⁸. Shuningdek, Fransiyadagi Monpele shahrida joylashgan tibbiyot maktabida ham tajribali

⁷История средних веков: В 2 т. Т.1: Учебник. – М.: Изд-во Моск. Ун-та: Наука, 2005, с. 595

⁸Арнольд из Виллановы. Салернский кодекс здоровья. Приложение. М., изд-во «Наука», 1970, с.77

mutaxassislar tayyorlangani 1137 yildagi yozma manbada bayon etilgan. Uning negizida Monpele universiteti tashkil topdi.

Xristianlik O'rta asrlar madaniyati va butun ma'naviy hayotining g'oyaviy negizi bo'lgan. XI-asr sxolastikani keng intellektual harakat sifatida yuzaga kelishi payti bo'ldi. Sxolastika nomi lotincha schola(maktab) so'zidan kelib chiqib, "maktab falsafasi" ma'nosini anglatadi. Sxolastika – ilohiyotdan kelib chiqadigan va u bilan chambarchas bog'langan falsafa bo'lib, uning mohiyati, xristianlikning dogmatik qarashlarini mantiqiy nuqtai nazardan mulohaza qilishdan iborat. Dogmatizm - bu aqidalarga, mohiyati tekshirilmay-netmay qabul qilinaveradigan qoidalarga ko'r-ko'rona ishonish ma'nosini anglatadi.

XII asrda sxolastikadagi turli yo'nalishlarning qarama-qarshiliklaridan cherkovning nufuziga ochiqdan-ochiq qarshilik ko'rsatish o'sib chiqdi. Uning ifodalovchisi Petr Abelyar(1079-1142) bo'lib, uni zamondoshlari o'z davrining eng dono kishisi deb atashgan. Abelyar o'smirligidayoq ochiq ilmiy munozarada o'sha paytdagi Shampo viloyatilik mashhur filosof Gilyomni yengib chiqqan. P.Abelyar tanaffuslar bilan 1102 yildan 1136 yilga qadar Parij universitetida dars bergan, biroq Eloiza ismli ayol bilan bo'lib o'tgan mash'um ishqiy sarguzashtlar va holatlar uni Parij universitetini umrbod tark etishga majbur qildi. O'rta asr mistikasining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Bernard Klervoskiy Abelyarning muxolifi bo'lib chiqdi. Mistisizm-bu tabiatdan tashqari sirli olam borligiga ishonishdan iborat diniy tasavvuf hisoblanadi. XII asrda mistika sxolastika doirasidagi kuchli oqim bo'ldi. Bernard Klervoskiyning falsafiy mistikasi dunyoviy adabiyotda ham aks etdi. Biroq Abelyar bilan Bernard Klervoskiyning falsafiy to'qnashuvlarining mohiyati ularning falsafiy qarashlarining bir-birlariga to'g'ri kelmasligida emas, balki Abelyar cherkovning nufuziga qarshi xarakat qiluvchi guruhlarning qarashlarini gavdalantirgan bo'lsa, Bernard Klervoskiy esa cherkov tashkilotini va tartiblarini himoyachisi va targ'ibotchisi bo'lib chiqdi.

Natijada Abelyarning qarashlari 1121 va 1140 yillardagi cherkov yig'ilishlarida qoralandi, uning o'zi esa umrini oxirigacha monastirda yashadi⁹.

Falsafada grek-rim merosiga qiziqishning oshib borgan qadimgi mutafakkirlarni yanada chuqur o'rganishda aks etdi. Avvalo Aristotelni, shuningdek Yevklid, Ptolomey, Gippokrat, Galen va boshqa mualliflarning grek va arab qo'lyozmalarida saqlanib qolgan asarlari lotin tiliga tarjima qilina boshlandi. Yuqoridagi asarlarni arabcha sharhi muallifi arab mutafakkiri Averroes(Ibn-Rushdiy)ning davom ettiruvchilari, Parij universitetining san'at fakulteti o'qituvchilari, falsafani unga ilohiyotning aralashuvidan xalos etishni talab qilishdi. Aslida ular aql-idrokni e'tiqoddan ajratish fikrida qattiq turishdi. Averroes tarafdorlari Siger Brabantskiy va Boetsiy Dakiyanskiy olamni abadiyligini ta'kidlashib, uning yaratilganini va har bir inson ruhining o'lmasligini inkor etishdi. Ularning ta'limotlari katolik cherkovi tomonidan qoralandi.

XII-XIII asrlarda Yevropaning aqliy hayotiga yunon-arab madaniyati kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: Korpus Abir ibn Xayyonning kimyoga doir turli asarlari XII-XIII asrlarda arabchadan lotinchaga tarjima qilingan.

Buyuk vatandoshimiz al-Xorazmiyning "Arifmetika" asarini XII asr boshlarida, 1126 yilda esa "Astronomik jadvallar" asarini Bat shaharlik Adelyar ismli kishi arabchadan lotinchaga o'giran. "Algebra" asarini esa Angliyaning Chester shaharlik Robert ismli kishi 1145 yilda arabchadan lotinchaga tarjima qilgan.

Arab xalifaligi davrida faoliyat yuritgan al-Roziyning kimyoga doir asarlarini, kelib chiqishi Fransiyadagi Kremon shahridan bo'lgan Gerard ismli kishi, XII asrda Toledo universitetida arabchadan lotin tiliga tarjima qilgan, 1279 yilda Sisiliyada "Tibbiyot ensiklopediyasi"(yunon mualliflarining tibbiyot bo'yicha asarlaridan kompilyatsiya) asarini Muso Faroxiy ismli kishi arabchadan lotinchaga o'giran, "Olmonzorning kitobi" asarini esa Kremon shahridan bo'lgan Gerard ismli kishi XII asrda Toledoda arabchadan lotinchaga tarjima qilgan.

⁹Петр Абеляр. История моих бедствий. М., изд-во «Наука», 1959, с. 44-45

Buyuk vatandoshimiz al-Farobiyning Aristotelning “Tabiat to‘g‘risida” gi kitobidan parchalarni yunonchadan arabchaga o‘g‘irgan asarini, Kremon shahridan bo‘lgan Gerard ismli kishi XII asrda Toledoda, arabchadan lotinchaga tarjima qilgan.

Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn-Sinoning “Davolash kitobi(Kitab al-Shifo)” asarini fizika va falsafaga oid bo‘limini, Seviliyalik Ioann ismli kishi XII asrda Toledoda arabchadan lotinchaga tarjima qildi. “Davolash kitobi(Kitab al-Shifo)” asarini minerallarga oid qismini Sereshel shaxridan bo‘lgan Alfred ismli kishi 1200 yilda Ispaniyada arabchadan lotinchaga o‘g‘irgan. “Kanon vrachebnoy nauki” asarini esa Kremon shahridan bo‘lgan Gerard ismli kishi XII asrda Toledoda arabchadan lotinchaga tarjima qilgan.

XII asrning birinchi yarmidan boshlab Yevropadagi boshqa universitetlardagi singari, Bolonya universitetida ham, kanonik(diniy) huquq faniga, teologiya(ilohiyot) fanining tarmog‘i sifatida emas, balki rim huquqiga parallel(o‘xshash) tarzdagi yurisprudensiya (huquqiy fan) sifatida qaralgan, boshqa huquqiy fanlar o‘qitilmagan.

XIII asr boshlarida Parij universiteti o‘zining rasmiy muhriga ega bo‘lishi masalasida, uning vakillari bilan mahalliy yepiskoplik hamda xukumat vakillari o‘rtasida bir necha o‘n yillar mobaynida bahs-munozaralar bo‘lib o‘tadi. Nihoyat, oxir-oqibatda, Parij universiteti o‘zining muhriga ega bo‘ldi: 1252 yilda universitet bunday huquqni papa Innokentiy IV dan oldi.

Shu bilan bir vaqtda, ichki tashkiliy ishlar jihatdan ham tadbirlar amalga oshirila borgan, fakultetlarni vujudga kelishi parij universitetini shakllanishi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Dastlabki fakultetlar aynan Parij universitetida, hatto Bolonya universitetidan ilgariroq, vujudga kelgan bo‘lib, keyinchalik boshqa universitetlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Parij universitetida dastlab - teologiya, yurisprudensiya, tibbiyot va falsafa fakultetlari – tashkil topgan. Mazkur fakultetlarni har birining professorlari erkin sharoitda ilmiy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish maqsadida, avvalo o‘zlarini fakultetlarida alohida uyushib, ma’lum bir huquqiy jihatdan bog‘lanishib, ayrim imtiyozlarga ega bo‘lishgan. Parij

universitetini tashkil topishida muhim rol o'ynagan, ilm-fanning turli tarmoqlari bo'yicha magistrning tutgan o'rnini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Fakultetlarning tashkil topishida tarmoq fanlar o'qituvchilarning ayrim guruhlarini birdamligi natijasida fakultetlar vujudga kelgan. Masalan, tabiiyki, teologlar shunisi bilan boshqalardan ajralib turishganki, ular teologiyani o'qitish uchun, avvalo va'z aytish yoki xutba o'qish huquqiga ega bo'lishlari yepiskopga bog'liq bo'lgan, bundan tashqari, ularning ko'pchiligini, obro'li va nufuzli, 35 yoshdan kichik bo'lmagan kishilar tashkil etgan. Mediklar esa nazariy bilimlarni berishni emas, balki avvalo, amaliyotni birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblashgan. Ishni umumiy tartibga solish qoidalariga ehtiyoj tug'ilganda esa, bunda artistik fakultetlarning o'qituvchi va talabalari oldingi o'ringa chiqishgan.

Ta'kidlash joizki, "fakultet"(fakultas) so'zi o'z-o'zidan ma'lumki, ilmiy tarmoqqa nisbatan qo'llaniladigan qobiliyat, aynan tegishli sohani o'qitishga bo'lgan qobiliyat ma'nosini anglatadi. Ta'kidlash lozimki, "fakultas" atamasi, alohida ilmiy tarmoq yoki bilim sohasi ma'nosida birinchi marta Rim papasi Gonoriy III tomonidan uning 1219 yilda Parij universitetiga yuborgan maktubi(murojaat qilib yozgan xati)da qo'llanilgan bo'lib, zarur sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan talabaga mazkur tarmoq yo'nalishi bo'yicha o'qish, bilim olishga ruxsat etilishi ta'kidlangan. San'at fakulteti magistrning talabiga ko'ra, 1259 yil yanvar oyidan boshlab, talabalar o'qishga kirgach, butun fakultet oldida qasamyod qabul qilishlari tartibi joriy etildi. Rim papasi Grigoriy IX tomonidan 1231 yilda qabul qilingan bulla(farmon), Parij universitetining "buyuk xartiyasi" deb qabul qilindi. Papa bullasida, 1222 yilda o'rnatilgan tartib-qoidalar, har bir fakultet bo'yicha alohida izohlanib, tasdiqlandi. Taqdim etilgan vakolatlarga ko'ra, har bir fakultet, o'zining tegishli nizomini qabul qilib, unga ko'ra bakalavrlarni o'qitish usuli va soatlarini, ilmiy munozaralar, kiyinish, kvartiralarni narxlarini belgilash, itoatsiz talabalarga nisbatan intizomiy choralarni qo'llash tartib-qoidalarini belgilashi mumkin edi. Hatto bir fakultetning boshqa fakultetning ichki ishlariga aralashishi taqiqlangan. Ayrim fakultetlarning statut(qonun) va farmoyishlaridan, universitetning barcha fakultetlar uchun

majburiy bo'lgan qarorlari, ajralib, farqlanib turishi lozim bo'lgan; fakultet tarkibidan talabalik safidan chiqarish, butun universitet safidan chiqarilgan deb hisoblangan, aksincha, masalan, teologiya fakultetining biror masala yuzasidan chiqarilgan fikr-mulohazasi, butun universitetning nuqtai-nazari sifatida qaralgan. Fakultetlarni boshqaruvchi shaxslar dekan (mahalliy cherkov okruglari boshqaruvchilarini nomi bilan) deb nomlandi va har bir fakultet o'zining alohida muhriga ega bo'ldi. Bu tadbirlar birdaniga emas, balki sekin-asta amalga oshirildi. Yuristlar va mediklar 1267 yilda o'z dekanlariga ega bo'lishdi, 1271 yilda yuristlar, 1274 yilda esa mediklar o'z muhrlarini olishdi, 1257 yilda tashkil topgan teologlar fakulteti esa, faqatgina 1296 yilda o'z dekaniga ega bo'ldilar. 1222 yilda Parijda universitet talabalari bilan mahalliy xukumat vakillari o'rtasida kelib chiqqan kelishmovchilik, ya'ni o'qituvchi va talabalarning ayrim ijtimoiy xarakterdagi talablari bajarilmagani uchun, keyingi o'n yilliklar davomida, ko'pchilik o'qituvchi va talabalar Parijni tashlab Orlean, Anju, Oksford, Kembrij va boshqa shaharlarga ko'chib ketadi, natijada bu joylarda ham ilmiy hayot shakllana boshladi. Papa Grigoriy IX ning Parij universitetiga yo'llagan bullasi bilan bir vaqtga, papa Fransiya qiroli Lyudovik Avliyo nomiga maktub yuborib, universitet bilan mahalliy xokimiyat o'rtasidagi kelishmovchilikni bartaraf etishga aralashishini so'raydi. Qirolning aralashuvi bilan o'rtadagi nizo bartaraf etilgach, Parijga yana ilm izlovchilarning oqimi kuchaydi, ularning soni hatto 30.000 kishiga yetadi.

Qirol Lyudovik Avliyo, Parij universiteti talabalarning shahar axolisining xonadonlaridan qo'noq sifatida foydalanishlarida vaqtincha yashashlari uchun ijaraga olingan kvartirani narxini belgilashda vakolatni universitetga berdi. Monaxlar va ruxoniy bo'lgan xonadon egalari bu holatda itoatsizlik qilishganda ushbu masalaga Rim papasi aralashib universitetning tarafini oldi. Tez orada universitet, auditoriya va kvartiralarni ijaraga olish tartibini belgilovchi qonunni, ishlab chiqdi. Unda belgilanishicha, agar shahar aholisi o'z xonadonida mavjud bo'lgan bo'sh turgan xonalarga, universitet komissiyasi belgilagan narxda o'qituvchi va talabalarni vaqtinchalik yashash uchun ijaraga qo'ymasa, u holda bu

xonadon besh yil muddatga “badnom”(infamia) etiladi, shu muddat mobaynida universitetning birorta a’zosi ham, kelgusida universitetdan a’zolikdan chiqarilish xavfi ostida, ushbu xonadonda ijarada turmaydi. Parij universitetining “infamiya”si aynan Bolonya universitetining “interdikt”iga o‘xshash tarzda tuzilgani bilan farqlanib turadi, chunki u joyda ham talabani vaqtincha yashashi uchun ijaraga xona bergan shahar aholisiga xonani narxini belgilash masalasida yuqoridagi singari chora belgilangan.

Oksford va Kembrij universitetlari, ham vujudga kelish vaqti, ham cherkov muassasalari bilan aloqalari jihatidan, parij universitetiga yaqin turgan.

Oksford universiteti XII asrda angliyaliklar uchun oliy ilm-fan markazi hisoblansada, Parij universitetidagi singari ilmiy harakat ko‘zga tashlanmaydi. Biroq, XIII asrning o‘rtalariga kelib, Kembrij universiteti endilikda ilm-fan sohasida Parij universitetining raqibiga aylandi. 1209 yilda Kembrij universitetining 3000 nafar magistr va talabalari vaqtinchalik yashab turgan kvartiralarini uchun belgilangan narxning yuqoriligidan norozi bo‘lib universitetni tashlab ketishdi¹⁰. 1214 yilda Rim papasining legati(diplomatik vakili) ning vositachiligida yuqoridagi muammo yechim topdi: unga ko‘ra ko‘pchilikni universitetni tashlab ketishga undagan magistrlar uch yil mobaynida o‘qitish huquqidan mahrum qilindi, talabalarga vaqtinchalik yashash uchun ijaraga xona beradigan shahar aholisi esa 1214 yildan boshlab kelgusida o‘n yil mobaynida, 1209 yildagi kvartira haqini yarmini olishlari kerakligi belgilandi. To‘rt nafar shahar aholisi va to‘rt nafar magistr vakillaridan iborat komissiya tuzilib, ular kelgusida yangidan ijara narxini belgilaydigan bo‘ldi. 1229 yilda Parij universitetida o‘qishni tashlab ko‘plab magistr va talabalar boshqa universitetlarga ketishadi, ularning bir qismi esa o‘z statutlari bilan Oksfordga kelishdi. Mana shu jihatdan Oksford universitetining statuti Parij universitetiga: barcha rahbarlik

¹⁰ Pirmqulov Shodmonqul. O‘rta asrlarda Angliya(O‘quv qo‘llanma). – Toshkent O‘zbek milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003, 147-bet.

hokimiyatini magistrnlarni qo‘lida mujassamlangani, ilm-fanning boshqa tarmoqlariga nisbatan teologiya va san‘at yo‘nalishining rivojlangani nuqtai nazaridan o‘xshashligi bilan izohlanadi. Oksford va Kembrij universitetlarining faoliyatiga Rim papasi kamdan-kam aralashgan, bu ta‘lim muassasalarining hayotiga qirol va shahar xukumati ko‘proq ta‘sir ko‘rsatishgan.

Kembrij universitetining tashkil topishi to‘g‘risida quyidagilar xikoya qilinadi: Linkolnshirdagi monastirlardan birining abbati ilgari Fransiyada ta‘lim olgan bo‘lib, u Parij universitetidan to‘rt nafar – bir nafar muqaddas diniy kitob, tavrot va injilni o‘qitish bo‘yicha hamda uch nafar falsafa fani bo‘yicha o‘qituvchilarni chaqirtib oladi. Chaqirtirilgan o‘qituvchilar bu joyda bir omborxonani ijaraga olib, u joyda maktab ochishadi. Kelgusi, ikkinchi yilda o‘quvchilar soni shunchalik ko‘payib ketadiki, ularni omborxonaga tugul, hatto cherkov binosiga sig‘dirishni imkoni bo‘lmay qoldi, oqibatda o‘quvchilarni sinflar bo‘yicha ajratib, turli soatlarda mashg‘ulot o‘tish belgilangan. Kembrij universitetini kelgusidagi ravnaq topishida, 1209 yilda Oksford universitetida va 1229 yilda Parij universitetida bo‘lib o‘tgan voqealar oqibatida magistr va talabalarning ko‘chib kelib o‘tmashishlari ko‘mak berdi.

Genrix III o‘zining 1231 yildagi yorliqlaridan birida, Kembrijga dunyoning turli mamlakatlaridan odamlar o‘qib, ilmiy bilimlar olish maqsadida oqib kelayotganini ko‘rib chin yurakdan quvonayotganligini bildirgan. Qirol talabalarni, shaharliklarning tazyiqlaridan o‘zining xomiyligiga oladi va kvartiralarga ijaraga qo‘yishda “universitetlarning urf-odatlarini” bo‘yicha narxni belgilash to‘g‘risida farmoyish berdi. Kembrijda teologiya va san‘at fanlari, ayniqsa matematika fani rivojlandi. Xuddi Oksforddagi singari, Kembrijda ham universitetga kansler boshchilik qilgan. Shunisi qiziqarliki, Kembrij universiteti yuz yilga yaqin faoliyat ko‘rsatgach, qirol Eduard III maktub orqali papa Ioann XXII ga iltimos bilan murojaat qilib, universitetga imtiyozlar tortiq etishini so‘ragan. Qirolning hohishiga ko‘ra 1313 yilda papa Ioann XXII tomonidan qabul qilingan bulla, ta‘sis etuvchi yorliq xususiyatiga ega bo‘lib, ilgari universitetga papalar va qirollar tomonidan in‘om etilgan barcha imtiyozlarni tasdiqlagan holda, kelgusida bu joyda amalda

mavajud bo'lgan ta'lim berayotgan va ta'lim olayotganlarning uyushmasini tan olinishi va kelgusida universitetning barcha qonuniy huquqlaridan foydalanishi mumkinligi ta'kidlandi.

Imperator Fridrix II, bir vaqtning o'zida Sisiliya qiroli, tomonidan 1224 yilda ta'sis etilgan Neapol universiteti ham o'ziga xos ta'lim muassasasi hisoblanadi. Mazkur ta'lim muassasasini Italiyadagi boshqa universitetlardan farqi shundaki, u davlat universiteti hisoblanadi. Xususan aytganda, Fridrixdan o'n yil ilgariroq Ispaniyadagi Valensiya shaharida qiroli Alonso VIII tomonidan universitetga asos solinadi, lekin mazkur universitetning ta'sis etilishi hamda boshqaruvida cherkov bevosita ishtirok etgan, biroq XIII asrning oxirlariga borib ushbu universitet faoliyatini to'xtatgan. Shuning uchun Fridrix II tomonidan ta'sis etilgan bu ta'lim muassasasiga dastlabki davlatga qarashli imperatorlik yoki qirollik universiteti tariqasida qarash lozim bo'ladi. Imperator o'zining Neapol shahrida universitet ta'sis etish to'g'risidagi qarorini izohlab, o'z fuqarolarini ilmiy bilimlar axtarib ochlik, qashshoqlik va darbadarlikda begona yurtlarda sarson-sargardon bo'lib yurishlaridan xalos etish maqsadi ekanligi, Neapol shahri esa ko'ngilli va osoyishta hayotni ta'minlaydigan barcha shart-sharoitlarni o'zida mujassam etganligini ta'kidlaydi. Farmoyishda, fuqarolarga kelgusida har qanday begona universitetlarga borib o'qish taqiqlangani, agar borib o'qiyotganlar bo'lsa, ular otanasining og'ir jazoga tortilishi xavfini oldini olish uchun joriy yilning kuzida Neapolga qaytib kelishlari majbur ekani uqtirilgan. Sisiliya qirolligini o'zining doirasida, Neapoldan tashqarida, har qanday joyda ma'ruza o'qish yoki eshitish taqiqlangan. Fridrix barcha ilmiy yo'nalishlar bo'yicha barcha professorlarni dars o'tish uchun taklif etib, ularga maosh belgiladi; talabalarga, hatto ular o'zga mamlakatlardan kelgan bo'lsalar ham, ular Neapolda yashab turgan vaqtda qirolning homiyliги ostida bo'lishini kafolati berilgan. Imperator, shuningdek, talabaning ehtiyoji uchun vaqtinchalik foydalanish maqsadida olinadigan xonaning ijara narxi, ikki nafar fuqaro va ikki nafar talaba ishtirokidagi komissiya tomonidan belgilanishini uqtirib o'tadi. Bundan tashqari, talabalar tomonidan, garovga biror buyum yoki narsani qo'yib pul qarz olish masalasi ham tartibga solingan. Fridrix,

talabalarning ustidan nazorat qilish huquqini magistr'larga topshirib, bir vaqtning o'zida, magistr'larga maosh tayinlab, ular talabalarni o'qitishda imperatorga sodiqlik ruhida tarbiyalashlarini talab qilgan. Tegishli o'qish muddatini o'tab, dastlabki sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga imperatorning o'zi, kelgusida tegishli soha bilan shug'ullanishi mumkinligi haqidagi lisenziya(ruxsatnoma)ni topshirgan. Bundan ilgariroq, da'vogarning o'zi qirolga imtihon topshirish uchun ruxsat berishini so'rab murojaat etishi lozim bo'lgan. Qirol, xukumat tomonidan belgilab qo'yilgan tartibga ko'ra tegishli sinov imtihonlarini qabul qilish to'g'risida professor'larga topshiriq bergan. Sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan da'vogar kelgusida faoliyat ko'rsatish uchun lisenziya(ruxsatnoma) olish uchun qirolga sodiqlik to'g'risida qasamyod qabul qilgan va lisenziyani olgach, kamida ikki yil muddat davomida Neapolda dars berishi majbur bo'lgan.

1222 yilda Bolonya universitetining mingdan ortiq o'qituvchi va talabalari Paduya shahriga ko'chib o'tishadi, keyinchalik bu joyda ham mahalliy xukumatning yordamida sekin-asta universitet tashkil topadi.

Italiyadagi mashhur oliy ta'lim muassasalaridan biri Perudja universiteti hisoblanib, shahar xukumati mahalliy universitetni Bolonya universiteti qatorida ko'rish maqsadida moddiy mablag'ni ayamagan, hatto yuridik fakultetning ilmiy salohiyatini Bolonya universitetidan taklif etilgan mutaxassis-huquqshunos professor-o'qituvchilar hisobiga kengaytirgan. XIII-XIV asrlar mobaynida Italiyadagi Modenna, Piza, Ferrara, Aresso, Paviya, Lukka, Pyachensa, Redjio, Vichensa, Trevizo, Senna va Florensiya singari shaharlar o'z universitetlariga ega bo'lishdi va bunda albatta Rim papasining bulla(ruxsatnoma)si ya'ni universitetni ta'sis etish haqidagi yorlig'ini olishgan. 1303 yilda papaning tashabbusi bilan Rim shahrida universitet tashkil etildi.

Fransiyada o'rta asrlarda tashkil topgan dastlabki oliy ta'lim muassasalari qatoriga Parij universitetidan tashqari, Monpele, Tuluza, Orlean, Anju universitetlari kiradi. Keyinroq esa, Avinyon, Kagor, Grenobl, Oranj, Puate, Bordo va boshqa joylarda ham universitetlar vujudga keldi.

Monpeleda medisina juda erta taraqqiy etdi. 1289 yilda papa Nikolay IV ning bullasi bilan bu joyda rim va kanonik huquq, medisina va erkin san'at o'qitiladigan universitet ta'sis etiladi, teologiya fakulteti esa keyinroq tashkil topadi.

Tuluza universiteti esa, o'lkada katolik cherkovi aqidalarga qarshi chiqqan bid'atchilarga qarshi kurash olib borish maqsadida tashkil etilgan. Qirol Lyudovik IX tomonidan 1229 yil 12 aprelda Tuluza grafi Raymund VII nomiga yuborilgan yozma farmoyishda ko'rsatilgan tinchlik shartlarida qayd etilishicha, graf kelgusi o'n yil mobaynida, Parijdan chaqirtirib keltirilgan 14 nafar professorlarga kumush pulda 4000 marka maosh to'lagan. Graf, talabalarni arzon narxlarda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga kafolat bergan. Papa Innokentiy IV 1245 yilda Tuluzaga ham papa Grigoriy IX ning bullasini tadqiq etgan.

Orlean shahrida, XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida, universitet tashkil etilishida papa Kliment V va papa Ioann XXII, shuningdek Fransiya qiroli Filipp Chiroyli tomonidan bir nechta meyoriy hujjatlar qabul qilinganligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi.

XIII asrda Anju universiteti papalik yoki qirollikning ta'sis yorlig'isiz vujudga keldi va XIV asrda esa bir necha papalardan yorliqlar olishga erishdi.

XIII asrning ikkinchi yarmida Avinyon shahrida magistr va talabalar tomonidan universitet tashkil etildi. 1303 yilda ular papa Bonifasiy VIII dan universitet ta'sis etish to'g'risida yorliq olishdi. Qirol Karl II tomonidan universitetda dars o'tish qoidalari, ijaraga olingan xonadon uchun narxlarni belgilash va soliq to'lash tartiblari belgilandi.

Kagor shahrida ham oliy maktab – universitet, shahar xukumatining iltimosiga binoan, papa Ioann XXII tomonidan ta'sis etildi va papa Grigoriy IX ning Parij universitetiga qo'llagan "buyuk xartiya"si ham Kagor universitetiga nisbatan qo'llanildi.

Ispaniya universitetlari orasida dastlab tashkil etilgani Valensiyauniversiteti bo'lib, shuningdek Salamanka, Lerid va Valyadolid universitetlari ham eng mashhurlari bo'lgan. Salamanka universiteti besh yuz yil mobaynida Ispaniyaning

faxri bo‘lib keldi va qirol Alfons X ning 1243 yildagi yorlig‘iga asosan tashkil etilgan.

Lerid universiteti esa Aragon qiroluqi Yakov II tomonidan 1300 yilda ta‘sis etilgan bo‘lib, bundan ilgariroq qirol papa Bonifasiy VIII ga o‘zining maqsadini bayon etgan bo‘lib, papa esa uning taklifini ma‘qullagan.

XIII asrdayoq faoliyat yurita boshlagan Valyadolid oliy maktabi, Kastiliya qiroluqi Alfons XI ning iltimosiga binoan papa Kliment VI tomonidan universitet deb e‘lon qilindi.

Rivojlangan o‘rta asrlar davrida Germaniya imperiyasi xududida universitetlarni tashkil etish bo‘yicha dastlabki qadam nemis yerlarida emas, balki imperiyaga vassal davlat hisoblangan Bogemiya qirolligi poytaxti - Pragada bogem qiroluqi va keyinroq esa, german imperatori Karl IV tomonidan amalga oshirildi. Qirol 1346 yilda papaga taqdim etgan hujjatlarda, uning qirolligida oliy ta‘lim muassasasi yo‘qligi, mamlakat markazida joylashgan poytaxt Praga shahariga turli mamlakatlardan ko‘plab odamlarning kelib-ketishlari, shu sababli Pragada universitet tashkil etish g‘oyatda maqsadga muvofiq va ma‘qul bo‘lishi ta‘kidlanadi. Papa qirolning hohish-istagini e‘tiborga olib va ma‘qullab, 1347 yilda Praga universitetining tashkil etish to‘g‘risidagi bulla(farmon)ni imzoladi va bu oliy ta‘lim muassasasiga universitet maqomi va imtiyozlarini taqdim etdi. Qirol esa, o‘zining 1348 yildagi ta‘sis yorlig‘i bilan Praga universitetiga barcha imtiyozlar va immunitet(dahlsizlik huquq)larni kafolatladi, kelgusi 1349 yilda esa imperator bogem qirolining yorlig‘ini tasdiqladi. German imperatori Karl IV ning o‘zi Parij universitetida ta‘lim olgan bo‘lib, o‘zi tashkil etgan Praga universitetini qadrlab va e‘zozlab, umrining oxiriga qadar ushbu ta‘lim maskani haqida g‘amxo‘rlik qildi. 1409 yilda Chexiya qiroluqi Vaslav Praga universitetining ustavi(nizomi)ni o‘zgartirdi. Universitetni idora qilish ishida chex millatidan bo‘lgan professorlarning rahbarlik roli ta‘minlandi¹¹. Shu qatori imperiyaning yana boshqa uchta vassal davlatlarida ham universitetlar tashkil etildi. Polsha qiroluqi

¹¹Qurbangaliyeva R. O‘rta asrlar tarixidan o‘quv-metodik qo‘llanma. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1980, 142-bet.

Kazimir tomonidan Krakov universiteti, Vengriya qiroli Vladislav tomonidan Fyunfkirxen universiteti va Avstriya gersogi Rudolf tomonidan Vena universiteti tashkil etish to'g'risida papaga ta'sis yorlig'i so'rab qilgan murojaatlari asosida, XIV asrning 60 yillarida mazkur universitetlar tashkil topdi. Endilikda, XIV asrning so'ngidan boshlab german yerlaridagi knyazliklar va shaharlarda Geydelberg, Kyoln, Ulm va Erfurt universitetlari vujudga keldi. XV asr mobaynida esa Vyursburg, Leypsig, Rostok, Greyfsvald, Freyburg, Lyuneburg, Ingolshtadt, Trir, Tyubingen va Mayns universitetlari tashkil etildi. O'sha davr nuqtai nazaridan german universitetlari qatoriga 1460 yilda ta'sis etilgan Bazel universitetini qo'shish mumkin. Shuningdek, Germaniyadan tashqarida, 1389 yilda Ofen, 1424 yilda Lyoven, 1477 yilda Upsal, 1479 yilda Kopengagen universitetlari tashkil topdi. Katolik cherkovi ishtirokida tashkil etilgan so'nggi oliy ta'lim muassasalari qatoriga, 1502 yilda Vittenberg, 1505 yilda Breslavl va 1506 yilda Oder daryosi bo'yidagi Frankfurt shahrida tashkil etilgan universitetlarni qo'shish mumkin.

1.2. O'rtta asrlarda G'arbiy Yevropa Universitetlarning tashkiliy tuzilishi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek Bolonya va Parij universitetlari Yevropadagi boshqa universitetlar uchun namuna va o'rnak vazifasini o'tagan. O'rtta asr universitetlarida talabalarning umumiy yig'ilishlarida rektor lavozimiga saylangan kishi diniy unvon yoki darajaga ega bo'lishi lozim bo'lgan, chunki dunyoviy rektorning, universitetdagi ruhoni o'qituvchi va talabalarni ustidan sudlov ishlarini olib borishga huquqi bo'lmagan. Universitetdagi boshqa lavozimlarga ham saylash huquqi talabalarga tegishli bo'lgan. Talabalar dastlab professorlarni ham lavozimga saylashgan, chunki ularga maosh talabalar tomonidan shartnoma asosida to'langan. Biroq keyinchalik, professorlarga ish haqi shahar xokimiyati tomonidan to'lanishi boshlagach esa, talabalar tomonidan professorlarni saylash huquqi bekor bo'ldi. 1420 yilda Bolonya universitetidagi 21 nafar huquqshunos-professor o'qituvchilardan faqat bir nafari universitet tomonidan saylanib, qolganlari esa shahar xokimiyati tomonidan maosh to'lanadigan lavozimga tayinlangan. Ammo, talabalarning ixtiyorida universitetning oltita alohida kafedralari o'qituvchilarini saylash huquqi qoldi, bu lavozimlarga bolonyaliklar saylanmasdan, faqat ajnabiylar saylangan, shuningdek saylanadigan o'qituvchilar doktorlik darajasiga ega bo'lishi mumkin bo'lmagan, saylanadiganlar esa kelgusida ilmiy darajaga ega bo'lish majburiyatini olishgan. 1399 yilda Paduya shahri xokimi Fransisk Karraria, yuridik fakultet talabalariga narxi 500 dukat turadigan uyni tortiq qildi va kelgusida bu joy universitetning binosiga aylandi¹².

Parij universiteti yettita yuridik birliklardan: teologiya(ilohiyot), huquqshunoslik va tibbiyot fakultetlari, to'rtta millatlarning uyushmalaridan ya'ni san'at fakultetidan iborat bo'lgan. San'at fakulteti yuqoridagi uchta fakultetlar oldida quyi pog'ona hisoblanib, ushbu uchta fakultet uchun nomzod talabalar tayyorlaydigan fakultet vazifasini o'tagan. San'at fakultetning boshlig'i dastlabki

¹²Суворов Н.С. Средневековые университеты. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012, с.109

vaqtlarda rektor deb atalgan, keyinroq esa universitet rahbari rektor deb ataladigan bo'lgan. Yuqori turgan uchta fakultetlarning rahbarlari esa dekan deb atalgan. Parij universitetida rektor lavozimiga doimo tayyorlov fakulteti vakillaridan saylangan, bunda yuqori turgan uchta fakultetning o'qituvchilari ishtirok etishmagan. Italiya universitetlaridan farqli ravishda Fransiyadagi Parij universitetida talaba va o'qituvchilarning umumiy yig'ilishlarida saylash huquqiga faqat o'qituvchilar ega bo'lgan. Har bir o'qituvchiga ma'lum miqdorda talabalar biriktirib qo'yilgan bo'lib, o'qituvchilar o'ziga biriktirilgan talabalarning alohida ro'yxatini tuzib, ularning ta'lim-tarbiyasini nazoratini olib borishgan. Tayyorlov(san'at) fakultetida dars beradigan oliy ilmiy darajaga ega o'qituvchilar – magistr deb atalgan, yuqoridagi uchta fakultetlardagi o'qituvchilar esa doktorlar deb atalgan, biroq ilmiy darajalar bir xil bo'lgani holda, qaysi fakultetda dars berishiga ko'ra o'qituvchilar, magistr yoki doktor deb nomlangan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Parij universitetida rektor faqat san'at fakulteti vakillaridan saylangan, mobodo rektor yuqori turgan uchta fakultetning doktorlik darajasiga ega bo'lishni hohlasa, o'z vakolatini bo'ynidan soqit qilishi lozim bo'lgan. Shuning tufayli rektor unvoni va darajasi jihatdan, yuqoridagi uchta fakultetning dekanlaridan paytroqda turgan. San'at fakultetining ustunligi shunda ko'rinadiki, universitetning umumiy yig'ilishlarida yuqori turgan uchta fakultet bittadan ovozga, shuningdek san'at fakultetidagi to'rtta millat vakillari ham bittadan ovozga ega bo'lib, ovoz berishda san'at fakulteti bir ovozga ko'pchiligi bilan ustunlik qilgan. Rektor majlisni o'tkazgan va unda raislik qilgan. Universitetning yig'ilishlarida turli masalalar muhokama etilgan. Masalan, 1333 yilda universitetdagi ko'pchilikni tashkil etuvchi to'rtta millat vakillarini viloyatlar bo'yicha bo'linishi, 1356 yilda esa ko'pchilikni tashkil etuvchi millatlar o'rtasidagi meyorlar bekor qilindi. Parij universitetining huquqshunoslik fakulteti o'qituvchilari tomondan 1340 yilda qabul qilingan qarorga ko'ra, har bir talaba ilm

olishni “erkin san’at”ni anglab yetishdan boshlashi lozim bo‘lgan¹³. 1389 yildagi umumiy yig‘ilishda esa, teologiya fakultetini tamomlagan bakalavrlar, lisenziya olgunlariga qadar Parijda yashab turishlari shart ekanligi belgilandi. Ayrim masalalar fakultetlar hamda ayrim millatlar vakillari o‘rtasida oldindan muhokama qilinishi holatlariga ham yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, shundan keyingina universitetning umumiy yig‘ilishida yagona qaror yoki farmoyish qabul qilingan. Fakultetlar mustaqil uyushmalar hisoblanib, o‘zlarining qonunlari, mansabdor shaxslari, o‘z muhri, mulki va daromadiga, o‘z bayramlariga ega bo‘lgan. Mobodo universitetdan biror joyga vakillar yoki elchilar yuborilishi lozim bo‘lgan taqdirda, favqulodda tarzda universitetning umumiy yig‘ilishini chaqirishga to‘g‘ri kelgan. Fakultetlarning uyushmalarini o‘zlari ham unchalik boy tashkilot bo‘lmagan. Ularning ayrimlari unchalik qimmat bo‘lmagan uy-joylarga ega edi. Masalan, Parijni yonidan o‘tgan Sena daryosi yoqasidagi avliyo otalar ko‘chasidan to nogironlar esplanada(hiyobonli keng ko‘cha)si bo‘ylab joylashgan keng o‘tloq maydonlar san’at fakultetiga tegishli bo‘lgan, biroq XVII asrga qadar hech qanday daromad keltirmagan, shu tufayli zarur hollarda xarajat qilish uchun fakultet bo‘yicha mablag‘ to‘plashga to‘g‘ri kelgan. Umuman olganda esa, fakultetning asosiy daromad manbai, ilmiy daraja olish uchun har bir da’vogardan har bir sinov uchun olinadigan taksa(qat’iy belgilangan to‘lov) hisoblangan. Ushbu mablag‘larning katta qismi o‘quv binolarini ijara haqi, qurilishi va ta’mirlash ishlari, shuningdek ibodat uchun sarflangan. Daromadlarning xarajatlardan ortib qolgan qismi, ayniqsa san’at fakultetida magistrilar o‘rtasida taqsimlangan va kichkina qovoqxona yoki mayxonalarda sarflangan.

Rim papalari tomonidan qabul qilingan ko‘pchilik bullalar universitetlarning, ayniqsa Parij universitetining faoliyatiga taalluqli bo‘lgan. Ushbu hujjatlarda, universitetning yepiskoplar va qirol xokimiyati bilan munosabatlari, shuningdek universitetni boshqarishdagi ichki qoidalarni tartibga

¹³Степанова В.Е. и Шевеленко А.Я. История средних веков(XV–XVII вв.).Хрестоматия. ч.II.М., “Просвещение”, 1974, стр. 60.

solgan. 1260 yilga qadar Parij universitetining faoliyatiga talluqli bo'lgan 140 dan ortiq papalik bullalari qabul qilingan. Keyinchalik esa universitet ishlarining rivojlanishida, qirolning va ayniqsa parlamentning ta'siri yana va yanada kuchayib bordi. Parij universitetiga papa va uning legati(Rim papasiningdiplomatik vakili) dan boshqa, universitetdag tashqarida turgan hokimiyat vakillari: qirol, qirol amaldorlari, parlament, parij yepiskopi va boshqalar ta'sirko'rsatgan, goho ular o'rtasida to'qnashuvlar ham bo'lib o'tgan.

Bizga ma'lumki, talabalar ijaraga yashaydigan kvartira masalasi, har doimo papalarni ham, qirollarni ham, shaharlarni ham e'tiborini o'ziga tortgan, va dastlab, papalar hamda qirollarning farmoyishlari asosida yoki universitetlarning shaharlar bilan kelishuvlariga binoan faoliyat yuritgan alohida kvartira komissiyalari tomonidan hal etilgan. Keyinchalik ushbu masalani keltirib chiqargan ehtiyoj, kollegiyalarni vujudga kelishiga olib keldi. Kollegiyalar, shuningdek, yoshlarni ko'chaning axloqiy buzuvliklaridan, qisman esa universitet tarkibiga kiritilgan monaxlik ordenlari maktablari talabalari ta'siridan asrash maqsadida ham tashkil etildi. Fransuz universitetlari orasida Tuluza universitetiga italiya universitetlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Monpele shahrida esa ikkita universitet, ya'ni tibbiyot hamda huquqshunoslik universitetlari tashkil topdi. Huquqshunoslik universiteti rektorining 12 nafar maslahatchilari bo'lgan. Rektor boshqa ilmiy darajali doktorlarga nisbatan yuqori unvonli hisoblangan va shunchalik obro'ga ega bo'lganki, XVI asrda rektor ko'chalarda bir guruh talabalarning kuzatuvida yurgan. Har ikkala universitetda, ham tibbiyot hamda huquqshunoslik universitetlarida ilmiy daraja olish masalasi yepiskopning ma'qullashiga bog'liq bo'lgan.

Angliyadagi Oksford va Kembrij universitetlari milliy universitetlar hisoblangan, xolbuki G'arbiy Yevropa kontinentidagi boshqa universitetlarda ko'plab ajnabiy talabalar tahsil olishgan. Masalan, Bolonya universitetida germaniyaliklar, Parij universitetida esa germaniyalik va italiyaliklar tahsil olishgan. Masalan, quyidagilarni eslab o'tish yetarli: Parijga Albert Buyuk Germaniyadan, Foma Akvinskiy Neapoldan, Petr Lombard Navarradan, Robert

Pull Angliyadan kelgan. Hatto imperator Fridrix II ham o'zining davlat universitetiga uzoq mamlakatlardan olimlarni, masalan, Petr Irlandiyalik kabilarni o'qituvchilikka taklif etgan. Angliya universitetlarida esa yashash joylariga ko'ra, shimollik va janubliklarga ajratishgan. XIII asrda Oksfordda ko'plab xususiy maktablar bo'lgan, talabalarning ko'pchilik qismi pansionlarda, ya'ni o'quvchilarni yotoqxonaga, oziq-ovqat, kiyim-bosh bilan ta'minlaydigan, o'rta o'quv yurtlarida ta'lim olishgan. Bu pansionlar egalari talabalarga tahsil beradigan o'qituvchilarni axtarib topishga urinishgan. XIV asrdan boshlab pansionlar o'rnini, talabalarga stipendiya to'lab o'qitiladigan kollegiya(kollej)lar egallay boshladi. Bu kollegiyalar, xayr-sadaqa va vasiyat qilingan yer-mulklar hamda mablag'lardan olinadigan daromadlar hisobiga faoliyat yuritgan. Angliyadagi o'ziga to'q, boy zodagon atoqli oilalar vakillari, kollegiyalarni tashkil etish va ta'minlashda muhim o'rin egallashgan. Ularga bu ishda kollegiyalarga qisman, monastirlar hamda abbatliklardan xayr-sadaqa qilingan yer-mulklar hamda mablag'lardan olinadigan mablag'lar ham, raqobatdosh bo'lgan. Reformasiya davrida cherkovga qarashli yer-mulklarning bir qismi o'zlashtirilgach, ushbu raqobatga barham berildi. Angliya kollegiyalaridagi talabalarning ko'pchiligini o'ziga to'q, boy va o'rta holxonadonlar vakillari tashkil etgan. Kollegiyalarga katta miqdorda nazr-niyoz qilingani tufayli bu joylarda ta'lim-tarbiya bergan magistrlar uchun maosh to'lash masalasida muammolar bo'lmagan. Aynan kollegiyalar tegizida Oksford va Kembrij universitetlari tashkil topdi.

Germaniya universitetlaridagi san'at fakultetlari XVI asrdan boshlab falsafa fakulteti deb nomlandi. San'at fakulteti, universitet tizimida eng ko'p odam o'qiydigan yo'nalish hisoblangan. German yerlaridagi eng dastlab oliy ta'lim muassasasi Praga universiteti bo'lib, uning tashkil topishida Parij universiteti ustavi ahamiyatga ega bo'lgani holda, Praga universitetining nizomlari Leypsig va Erfurt universitetlarining vujudga kelishida namuna bo'lib xizmat qildi. O'z navbatida Erfurt universitetining nizomlari Germaniyadagi boshqa universitetlarning vujudga kelishida muhim o'rin egallagan. Praga universiteti nizomlarida rektor lavozimiga tayinlanadigan kishiga quyidagi: nikohdagi ota-onadan tug'ilgan bo'lishi, 25

yoshdan yuqori bo'lishi, nomi benuqson, dog' tushmagan bo'lishi, eng kamida quyi darajadagi diniy unvonga ega bo'lishi va ilgari rohib, monax bo'lmagan bo'lishi kabi talablar qo'yilgan. Biroq rektorni ilmiy darajaga ega bo'lishi lozimligi to'g'risida hech narsap aytilmagan. Praga universiteti rektori fakultetlarning vakillari tomonidan saylangan. Vena universitetining 1365 yilgi ta'sis yorlig'iga binoan, rektor lavozimiga saylanadigan nomzod san'at magistri darajasiga ega bo'lishi lozim edi. Frankfurt universitetida esa, doktor va magistr unvoniga ega bo'lgan o'qituvchilarning vakillari orasidan rektor saylangan. Bazel universitetining 1477 yildagi nizomlariga binoan, rektor huzuridagi boshqaruv kengashi yoki komiteti olti nafar a'zodan: yuqori fakultetlardan ikki nafar doktor, san'at fakultetidan ikki nafar magistr va ikki nafar talabalardan iborat bo'lgan. Xuddi Bolonyadagi singari, Bazel universitetida ham yangi saylangan rektor qasamyod qabul qilganida barcha talabalar ishtirok etgan.

Aynan mana shu davrda universitetlarning barcha o'qituvchi va talabalari uchun rioya etilishi lozim bo'lgan ritual(marosim) tartib-qoidalari vujudga keldi. Masalan, Vena universitetida, tantanali marosimlar vaqtida universitet a'zolari quyidagi tartibda rektorning ketidan borishgan: 1) teologiya fakultetida dars beradigan doktor darajasiga ega o'qituvchilar hamda gersog va graflarning shu joyda o'qiydigan o'g'il farzandlari, 2) yuridik fakukltetda dars beradigan doktor darajasiga ega bo'lgan o'qituvchilar va oliy darajali dvoryanlarning shu joyda o'qiydigan farzandlari, 3) tibbiyot fakultetining doktor darajasiga ega o'qituvchilari va shu joy o'qiydigan mayda dvoryanlarning farzandlari, 4) yuqori fakultetlarning birida bakalavr darajasini olgan va san'at fakultetida dars beradigan magistrlar, 5) uchta yuqori fakultetning bakalavrlari va san'at fakulteti magistrleri darajasiga ega bo'lgan, biroq dars bermaydiganlar, 6) san'at bakalavrlari va yuqori fakultetlarning yuqori kurs talabalari, 7) boshqa barcha talabalar yurishgan.

II – 606 . O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada fan va ta‘limni rivojlanishi.

2.1.Universitetlarda ta‘lim va o‘quv jarayonining tashkil etilishi.

O‘rta asr universitetlarida o‘quv mashg‘ulotlari yil mobaynida davom etgan va faqat XV asrning oxiridan boshlab, Germaniya universitetlarida yarim yillik va semestrlarga bo‘lina boshlagan. O‘quv mashg‘ulotlarining dastlabki semestri sentabrda boshlanib to pasxa diniy bayramigacha davom etgan. Keyingi semestr esa pasxa bayramidan keyin boshlanib to iyun oyining oxiriga qadar davom etgan. O‘quv rejasi butun o‘quv yiliga mo‘ljallanib tuzilgan.

O‘quv mashg‘ulotlari, ma‘ruza(leksiya)larni o‘qish(eshitish) hamda amaliy mashqlardan iborat bo‘lgan. Ma‘ruza mashg‘ulotlari, qaysi kitob yoki asarlar bo‘yicha va qaysi professor yoki o‘qituvchi tomonidan o‘qilishiga ko‘ra, ordinar va ekstraordinarga ajratilgan. O‘rta asrlarda falonchi professor yoki o‘qituvchi falon kitob bo‘yicha ma‘ruza o‘qiydi deb aytilgan. Biroq ayrim kitoblar talaba uchun o‘ta muhim va majburiy hisoblansa, boshqa kitoblar esa unchalik muhim va majburiy hisoblanmagan. Masalan, legistlar uchun digestlarning qadimgi digestlar deb nomlangan qismi va kodeks, shuningdek, kanon(diniy qoida-qonun)larda esa Grasian dekreti(qonuniy kuchga ega bo‘lgan qaror, farmoyishi) va Grigoriy IX ning dekretallari, ordinar kitoblar hisoblangan. Legistlar – (lotincha legistae - qonun) o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida cherkov huquqiga qarama-qarshi o‘laroq Rim huquqini ishlab chiqqan va yuridik amaliyotga joriy etgan yuristlar bo‘lib, ular XIII asrda Fransiyada alohida mavqega ega bo‘lganlar va qirol hokimiyatini uning yirik feodallarga qarshi kurashida qo‘llab-quvvatlaganlar¹⁴. Ordinar ma‘ruzalar uchun faqat o‘quv kunlari, ertalabki, tushlikdan oldingi soatlar belgilangan, bunda tinglovchilar ma‘lumotlarni oson va qulay qabul qila olishi nazarga olingan, ekstraordinar ma‘ruzalar tushlikdan keyingi soatlarda o‘qilgan, va nafaqat o‘quv kunlari, balki ayrim katta bayramlarni istisno etganda, bayram va kanikul(ta‘til) kunlarida ham amalga oshirilgan. So‘ngra, ordinar ma‘ruzalar

¹⁴Yuridik ensiklopediya. – T.: “Sharq”, 2001, 272-bet.

paytida, savol berib ma'ruzachini gapini bo'lib qo'yishga ruxsat etilmagan, ekstraordinar ma'ruzalar vaqtida esa savol berishga ruxsat etilgan, bu ham kamlik qilsa, talabaning savoliga, ma'ruzachining o'rniga, boshqa bir talaba javob berishi mumkin edi, yoki, ekstraordinar ma'ruzalar, xuddi germaniya universitetlaridagi singari, yuzaki, ko'z yugurtirib o'qilishiga ruxsat etilgan, chunki ordinar ma'ruzalar, mukammal, batafsil izohlar bilan o'qilgan. Vanihoyat, ekstraordinar ma'ruzalarni o'qish vaqtida ma'ruzachi ma'lum bir tegishli kiyim-bosh kiyish to'g'risidagi qat'iy tartib-qoidadan chetga chiqib, boshqa ust-boshda bo'lishi ham mumkin edi. Ekstraordinar ma'ruzalarni faqat ekstraordinar professor, tushlikdan keyingi soatlarda o'qishi lozim edi; biroq ordinar ma'ruzalarni o'qish huquqiga ega bo'lgan ordinar professor, tushlikdan keyingi soatlarda ordinar ma'ruzalarni ekstraordinar tartibda o'qiy olishi yoki bo'lmasa, ekstraordinar ma'ruzalarni o'qishi mumkin edi. O'z-o'zidan ma'lumki, ekstraordinar ma'ruzalarni faqat bakalavrlar o'qigan, ular fanning predmeti va o'quv soati bo'yicha doktorlar bilan raqobatlasha olmagan. Ammo ilohiyot fakultetlarida, ilohiyot mutaxassisi hisoblangan bakalavr, fakultet rahbariyatining topshirig'i bilan ordinar ma'ruza o'qishi mumkin bo'lgan. Ma'ruza jarayonining tashqi tomoniga kelsak, universitetlarning nizomlari diktant tarzida yozdirishga salbiy munosabatda bo'lgan.

Parij universitetida, san'at fakulteti magistrleri, o'qiladigan ma'ruza matnini tinglovchilarni biriga berib, u boshqa tinglovchilarga ma'ruza matnini magistrni o'rniga o'qib berib turgan, magistr esa darsni kuzatib o'tirgan. Bu holat aniqlangach, fakultet rahbariyati magistr larga matnini o'qib berishni taqiqladi va ma'ruza matnini og'zaki so'zlab berish majburiyatini yuklab, qasamyod qildirdi. Agarda, nizam va qasamyod magistr tomonidan birinchi marta buzilsa bir yil muddatga, agar to'rt marta buzilsa to'rt yil muddatga o'qituvchilik qilish huquqidan mahrum etilgan. Nizomlarga ko'ra, matnlarni qayta o'qib berish taqiqlangan, faqatgina istisno etilgan holatlarda, o'ta murakkab va muhim qismlarini ikki marta o'qib berishga ruxsat etilgan. Talabalardan ma'ruza darslariga o'zlarining shaxsiy darsliklari yoki kitob sotuvchilardan ijaraga olingan

kitoblar bilan birga kelishga talab qilingan. Bularning barchasi, talabalarni matn bilan bevosita tanishib borishga majbur qilish uchun amalga oshirilgan. Kitob bosishni kashf etilguniga qadar, professional mirzalar, buyurtmaga asosan o'quv darsliklarini ko'chirib berish bilan shug'ullanib, katta pul ishlab daromad qilishgan. Qog'ozni taqchilligi tufayli darsliklarning narxi ham qimmat bo'lgan, shu sababli barcha talabalarning ham zarur darsliklarni sotib olishga qurbi yetmagan, shu sababli ma'ruzachilar tomonidan matnni o'qib talabaga yozdirish tartibini hayotni o'zi namoyon qilgan. Shu tufayli, Parij universitetidagi san'at fakultetida nizom talabiga asosan matnni o'qib yozdirmaslik to'g'risida qasamyod qabul qilingan bo'lsada, biroq bu talabga amalda rioya etilmagan, chunki yuqorida qayd etilganidek, san'at fakultetida tahsil oladigan ko'pchilik talabalarning darslik sotib olish yoki ijaraga olishga moddiy jihatdan qurbi yetmagan. Ekstraordinar ma'ruzalar masalasiga kelsak, bu holatda, matnni o'qib yozdirish hech qachon taqiqlanmagan.

Germaniya universitetlarida, ma'ruza o'qilayotgan matn kitobini uch nafarga qadar talabalar ko'z oldilarida tutib uzatib turishlari lozim bo'lgan. Ma'ruzani qoldirganlik uchun yoki ma'ruzaga kech qolganlik tufayli, ham o'qituvchilar, ham talabalardan jarima undirilgan. Germaniya universitetlarida, bakalavrlar hamda talabalarni ma'ruzalarga qatnashishlarini majburiy kelishini ta'minlash uchun turli tarzdagi choralarni qo'llashgan. Misol uchun, Tyubingen uni versitetining 1477 yilga oid nizomlariga binoan, talabalar imtihon topshirish uchun kelganlarida, nechta ma'ruza va mashqlarni qoldirgani hamda qaysi sabablarga ko'ra qatnashmaganini ma'lum qilishi lozim bo'lgan. Ingolshtatd universitetida talaba uzrli sabablarsiz ikki hafta davomida ma'ruza mashg'ulotlariga qatnashmasa, pul tarzida jarima to'lashdan tashqari, imtihonga qo'yilmagan va bursa(ruhoniylarning o'quv yurti)da talabalar safidan chiqarilgan. Leypsig universitetida har bir magistr o'z tinglovchilari ro'yxatini yuritish majburiyatini olgan(darvoqe, ro'yxatda ayb va gunohlarni qayd etish grafasi ham bo'lgan), magistrning o'zini ustidan alohida vizitatorlar kuzatib, nazorat qilib borishgan, ular haftasiga ikki marta magistrning ma'ruza va mashqlarini kuzatishgan, mashg'ulot vaqtida hozir bo'lmagan

talabalarning qatnashmaganligi holati magistrning ro'yxatida majburan yo'q qilib belgilangan. Bolonya universitetining nizomlari, o'qituvchilar o'zlarining ma'ruzalarini to'g'ri va bir tekisda birin-ketin o'qishlarini nazoratini tartibga solishda mayda-chuydalargacha e'tiborga olingani bilan ajralib turadi. 1347 yilgi nizomlarga ko'ra, ma'ruza o'qiladigan fan bo'yicha mavjud darslikning o'zi bir nechta qismlarga ajratilib, har bir bo'lim bo'yicha, 12-14 kun mobaynida darsni o'tib tamomlanishi zarur ekani, ya'ni shartligi ko'rsatilib, taqsimlangan. Har o'quv yilini boshlanishi oldidan barcha professorlar 25 bolonya funti miqdorida oldindan garov puli to'lashi lozim bo'lib, bular, ma'ruza bo'yicha tamomlanmasdan qolgan bo'lim yuzasidan to'lanadigan jarimani qoplashi lozim bo'lgan. Qonun, dekretal, glossa(qadimgi tekstlardagi so'z yoki iboralar izohi)ning bo'limi bo'yicha ma'ruza matnidagi biror so'zni tushib qoldirganlik uchun alohida jarima to'lanishi lozim bo'lgan. Ma'ruzalar o'zining mazmun-mohiyati jihatdan, ordinar yoki ekstraordinar darsliklarni asosiy bo'limlarga ajratib mashg'ulot o'tishdan iborat bo'lib, ilohiyotchilar Bibliyani, huquqshunoslar – kanon(diniy) va rim huquqlari to'plamlarini, mediklar – Avisenna(Abu Ali ibn Sino), Gippokrat va Galen asarlarini, san'atkorlar – Aristotel(Arastu), Porfiriy va boshqalarni asarlari asosida mashg'ulotlar o'tganlar. O'quv materiali hajmining kattaligi va ko'pligi tufayli, professor – o'qituvchilar endilikda ma'ruza bo'yicha asosiy matnning eng muhim qismini va joyini, lo'nda va qisqa hamda tushunarli tarzda tinglovchilarga yetkazib berish tartibini qo'llaydigan bo'ldilar.

Barcha fakultetlarning tinglovchilari uchun ma'ruzalar o'tiladigan doimiy auditoriya(darsxona, sinf)lar uzoq paytga qadar mavjud bo'lmagan. Har bir o'qituvchi ma'lum bir kishilardan iborat o'quvchilarga ma'ruza o'qib, ularni imtihonlarga tayyorlagan. Bolonya universiteti professorlari, agar ular bolonya fuqarolari bo'lsa, darsxonalarini o'zlarini uy-joylarida tashkil etishgan, yoki ajnabiy o'qituvchilar esa ijaraga olingan zallarda darslarni uyushtirishgan, va faqat XIV asrdan boshlab shaharlar xukumati tomonidan auditoriyalar uchun jamoat binolari ajratilib, darsxonalar tashkil etila boshladi. Parijda ham o'quv xonalari ijaraga olingan va o'qituvchilar ham juda ko'pchilikni tashkil etgan, shu tufayli ham

ajablanarli joyi yo'qki, Parij shahrining butun bir qismi uzoq vaqtgacha "universitet" atamasini saqlab qolgan. XIII asrda har bir magistr darsxona uchun o'zining nomidan va o'z hisobidan uy-joy yoki zalni ijaraga olgan va o'z-o'zidan ma'lumki bu xarajatlarni o'z o'quvchilarini zimmasiga yuklagan. Ta'lim oladiganlar va ta'lim beruvchilarning oqimi ko'payib borgani sari, ijaraga beriladigan xona-joylarni narxi-navosi haddan tashqari ko'tarib ketdi, natijada qisman papa, qisman qirol tomonidan uy va xovli-joylarning egalari uchun ijarachilardan olinadigan taksalar, ya'ni qat'iy narxlar belgilangan. Universitet nizomiga binoan, auditoriya uchun ijaraga olinadigan xona yoki zalni ma'ruzachidan tashqari boshqalarni yollashi taqiqlangan. Shuningdek, magistr tomonidan bir paytni o'zida bir nechta xona yoki zalni ijaraga olinishi ham taqiqlangan. So'ngra, kollegiya va bursa lar, o'qituvchilar va o'quvchilar joylashtirilgan bino vazifasini o'tashdan tashqari, endilikda ma'ruza darslari o'tiladigan auditoriyalar sifatida foydalanila boshlandi. Angliya va Germaniya universitetlari haqida ham yuqoridagi holatlarni ta'kidlash mumkin. Bu davlatlarda, o'rta asrlarning oxirlarida universitetlar o'zlarining auditoriyalariga ega bo'la boshlagan.

Turli universitetlarda professorlarga, shaharlar va knyazlar tomonidan pul tariqasida yoki cherkov benefisiylari sifatida maosh, ish haqi to'lana boshlagach ham, universitetlarda ma'ruza o'qiydigan ko'pchilik o'qituvchilar tinglovchilardan kelib tushadiganonorar(pastus – oziq-ovqat) evaziga kun kechirishgan. Maosh joriy etilguniga qadar esa natural gonorar barcha o'qituvchilar uchun mukofot vazifasini o'tagan. Italiya universitetlari tarixidan ma'lumki, Gonorarning normasi belgilab qo'yilmagani tufayli, har safar o'qituvchi bilan har bir tinglovchi o'rtasida alohida kontrakt(shartnoma) tuzilgan. Bolonya universitetida yuridik fanining darg'alaridan biri professor Odofred bo'lib, u digestlar bo'yicha faqat ordinar ma'ruzalarni o'qigan.

Bolonya universiteti tarixiga doir arxiv hujjatlari orasida, XIII asr oxiriga oid notarial shartnomasi saqlanib qolgan bo'lib, bu hujjatli manba Pyotr va Shabrinus ismli o'qituvchilar o'rtasida tuzilgan. Unga ko'ra, Pyotr, Bolonya shahrida yashab,

katta xovli-joyga ega bo'lgani holda uyidagi bir nechta xonalardan auditoriya sifatida foydalangan va ayrim xonalarda tinglovchi talabalar yashashi uchun sharoitlar yaratgan. Pyotrning o'zi universitetda notarial san'ati fani bo'yicha ma'ruza o'qigan. Shabrinus esa boshqa joydan ko'chib kelgan bo'lib, Bolonya universitetida huquqshunoslik kursiga doir fanlarning biridan dars bergan. Ushbu fakultetda Shabrinus Yustinian institutsiyalari va unga glossa(izoh va sharh)lar bo'yicha ma'ruza o'qigan. Pyotrning uyida ta'lim olayotgan tinglovchilarga Shabrinus o'zi o'qiyotgan kurs bo'yicha ma'ruza o'qishi va ulardan oz miqdorda gonorar olishga rozi bo'lgani to'g'risida mazkur shartnoma tuzilgan. Bolonya universitetida pedel foydasiga yig'im undirilgan, ular maosh olmagan tufayli o'tagan vazifasidan tushgan daromad hisobiga kun kechirishgan. Masalan, universitet pedeli barcha auditoriyalar bo'yicha har bir talabadan 4 soldo(Italiyada: chaqa pul, liraning yigirmadan biriga teng) undirgan; har bir ayrim professorning pedeli o'sha professorning talabalaridan 4 soldodan boshlab to 2 lira(Italiya, Vatikan va Turkiyada pul birligi) miqdorgacha undirgan. Parij universitetidagi gonorarning miqdori, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kelishuvga asosan belgilangan. Ma'lum bo'lishicha, 1383 yilda san'at fakultetida ertalabki ma'ruza darsi uchun 1 frank(Fransiya pul birligi) to'langan. 1450 yilda bir magistr, bakalavr darajasini olish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan tinglovchiga kitob bo'yicha repetisiya o'tib, izohlab bergani uchun 1 ekyu(O'rta asrlarda Fransiyada oltin yoki kumush pul birligi) talab qilgan.

Germaniya universitetlarida talabalardan gonorarlarni undirish va miqdorini belgilash tartibi fakultetlar zimmasiga yuklatilgan. Umumiy qoidagi ko'ra, kamida uch marta ma'ruza darsiga qatnashgan talaba gonorar to'lagan. Vena universitetining 1389 yildagi nizomida, kambag'al tinglovchilarni gonorar to'lashdan o'qituvchining o'zi ozod etishi mumkinligi qayd etilgan. Leypsig universitetida ham nizomga binoan, ta'lim olish uchun taksada belgilangan hajmdagi to'lovni amalga oshirish imkoniyati bo'lmagan talaba, bu to'g'risida o'qituvchisiga murojaat etib, to'lovdan to'la yoki qisman ozod etishni so'rashi mumkin bo'lgan. Bu joyda har semestrda taksatorlar komiteti tuzilib, ular har bir

talabadan o‘tilgan ma’ruza va mashq mashg‘ulotlari uchun belgilangan miqdordagi to‘lovni undirishi, qaysi talabadan to‘lovni to‘la undirish va qaysi talabani o‘qish uchun to‘lovdan ozod etish masalasini hal etishgan.

Amaliy mashg‘ulotlar, asosan repetisiyalar va disputasiya(munozara)lardan iborat bo‘lgan. Yozma ishlarni tuzish, o‘rta asrlarda noma’lum bo‘lgan. Italiya universitetlarida repetisiya tushunchasi ayrim bir matnni mukammal, batafsil tarzda izohlashni anglatgan. Parij universitetida repetisiya tushunchasi mazkur masalaga doir barcha manbalarni va qo‘lyozmalarni, ularga nisbatan qo‘llanilgan izoh va sharhlarni tekshirib chiqishni anglatgan. Germaniya universitetlarida esa repetisiya tushunchasi, o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi jonli muloqotni anglatgan. Bunda o‘qituvchi savol-javob tarzida talabaning o‘zlashtirgan bilimlari darajasini aniqlagan.

2.2.Rivojlangan oʻrta asrlarda Gʻarbiy Yevropada fanning rivojlanishi.

Maktab va universitetlarning koʻpayishi kitobga boʻlgan talabni kuchaytirdi. Ilk Oʻrta asrlarda kitob qimmatbaho buyum boʻlib, uni pergamentga — buzoq terisidan tayyorlangan maxsus varaqlarga xattotlar yozishgan. XII asrdan kitobatda alohida ustaxonalar ochilishi ularning birmuncha arzonlashuviga olib keldi. XIV asrdan qogʻozning keng qoʻllanilishi esa, uni yana ham koʻproq chiqarishga yordam berdi. Qogʻoz Xitoydan musulmon davlatlari, jumladan, Samarqand orqali Yevropaga kirib keldi. Ispaniyada dastlabki qogʻoz ustaxonalari XII asrdan ishga tushgan. Keyinchalik, XIV asrdan Italiyada qogʻoz ishlab chiqarish sohasi keng rivojlandi. Yevropadagi dastlabki ustaxonalar qogʻozni eski lattalardan qilishgan.

Germaniyada 1445-yili Iogann Guttenberg kitob bosish dastgohini kashf etdi. Uning kashfiyoti kitobning ommaviy tarqalishiga imkoniyat yaratib, Yevropa madaniy hayotida katta oʻzgarishlarga olib keldi. XII asrga qadar kitoblar asosan cherkov kutubxonalarida mujassamlangan boʻlsa, XII-XV asrlarda esa universitetlar, qirollarning saroylari, yirik feodallar, ruhoniylar va badavlat shaharliklarda ham koʻp sonli kutubxonalar paydo boʻldi.

Tajribaga asoslangan bilimlarning rivojlanishi masalasida shuni aytish lozimiki, Yevropada ilm-fan XIII asrdan boshlangan deyishadi. Sababi bunga qadar tajribaviy ilmlar va falsafa oʻrtasida katta farq bor edi. Hayot talabi XII asrdayoq matematika va mexanika sohalarini birmuncha taraqqiy qilishini taʼminladi. Robert Grossetest tabiatni oʻrganishga matematika nuqtai nazaridan yondashishga intildi. Oksford universiteti professori Rojer Bekon XIII asrdan bilimga kuzatishlar va tajribalar yoʻli bilangina erishish mumkinligini isbotladi. Rojer Bekon optika, fizika, kimyo fanlariga oid birmuncha ahamiyatga molik ilmiy natijalarga erishdi. Olim oʻzi yuradigan kema, izvosh, dengiz tubida va havoda suzuvchi kemalar yasash mumkinligi haqida yozgan edi. Bekonning hayoti qiyinchilik va xavf-xatarlarga toʻla boʻlgan. Xristian cherkovi tazyiqi natijasida u uzoq yillar qamoqda oʻtirgan.

Bekoning ishini davomchilari Uilyam Okkam, Nikolay Otrekur, Buridan va Nikolay Orezmskiy(Orem) bo'lib, ular fizika, mexanika, astronomiyani rivojlantirish uchun ko'p ishlarni amalga oshirishdi. Masalan, Orem, Yerni bir sutkada bir marta o'z o'qi atrofida aylanib chiqishi ta'limotini rivojlantirdi, koordinatlarni qo'llash g'oyasiga asos soldi.

Xo'jalik taraqqiyoti, cherkov ta'limotidan farqli o'laroq, tajriba asosidagi ilmlarning rivojlanishiga ehtiyoj tug'dirdi. Dehqonlar ishlov berishni yaxshiladilar, tuproqning xususiyatlarini bilishga intildilar, ob-havo, chorva mollari va ekinlar holatini kuzatib bordilar. Hunarmandlar temir, uning turli qorishmalari va toshlar xususiyatlarini o'rgandilar. Bo'yoq va shisha tayyorladilar.

O'rta asrlarda munajjimlik va alkimyo fanlariga ayniqsa katta e'tibor berildi. Munajjimlar osmon jismlariga qarab kelajakda bo'ladigan voqealarni bilishga intilganlar. qirollar, sarkardalar, savdogar va sayyohlar ulardan doimo maslahatlar olib turganlar. Har qanday ma'danni oltinga aylantiruvchi «sehrli tosh»ni izlagan kimyogarlarni ham O'rta asr olimlari ichida ko'pchilikni tashkil qilgan. Ular tajribalari jarayonida turli bo'yoqlar, ma'danlarning xususiyatlari, bir qancha qotishmalarni, dorivor moddalarni tayyorlash amaliy usullarini ixtiro qilganlar. Sisiliya qirolligida hukmdorlarning xomiyligi ostida Salernoda tibbiyot maktabi taraqqiy qilib, Arnold da Villanovni mashhur "Salerno kodeksi" bosilib chiqdi, unga inson salomatligiga doir turli nasihatlar, turli o'simliklarning dorivor xususiyatlari to'g'risida ta'rif va bayonlar berilgan.

XVI—XVII asrlarda tabiatshunoslik fanlarining keskin yuksalishi boshlandi. Ishlab chiqarish, jumladan, lexnikaning o'sishi ilmiy taraqqiyotga keng yo'l ochdi. Tabiatdagi voqea-hodisalarning amaliy tomonlarini tadqiq qilish yo'lga qo'yildi.

Fizika fanining mexanika sohasi sanoatning ba'zi sohalarida oddiy mexanizmlardan foydalana boshlanishi, qurilish texnikasining takomillashuvi, chuqur shaxtalarning paydo bo'lishi, artilleriyaning yildan-yilga kengroq qo'llanilishi natijasida ancha rivojlandi.

Murakkab suv inshootlarining paydo bo'lishi, gidrostatika va gidrodinamikaning o'rganilishiga, uzoq dengiz sayohatlari, astronomiya fanining rivoji va kompasning qo'llanilishiga, bo'yoqchilik va tibbiyotning yutuqlari kimyo sohasidagi bilimlarning takomillashuviga olib keldi.

XVI—XVII asrlarda hunarmandchilik texnikasining rivojlanishi natijasida ko'plab asbob-uskunalar ixtiro qilindi. Jumladan, mikroskop va teleskop, termometr, simobli barometr, gidrometrlar kashf qilindi.

Tabiatshunoslikning o'sishida buyuk geografik kashfiyotlarning roli katta bo'ldi. Bu sohadagi kashfiyotlar yerning shar shaklida ekanligini tasdiqlabgina qolmay balki astronomiya, botanika, zoologiya fanlarini yangiliklar bilan boyitdi.

Astronomiya. Fandagi burilish eng avvalo astronomiya sohasida ro'y berdi. XVI asrga qadar G'arbiy Yevropada, shuningdek Sharq mamlakatlarida ham antik davrda yaratilgan geotsentrik g'oya hukmron edi. Unga ko'ra koinot markazida doira shaklida harakatsiz Yer turardi. Yerning atrofida, ma'lum masofada Oy, quyosh va boshqa sayyoralar, yulduzli osmon aylanib turadi. Bu g'oyaning asosi Aristotel, Gipparx va Ptolomey davrida ishlab chiqilgan edi.

Yerning harakatdagi fazoviy jism ekanligini tan olish avvalgi farazlarga, kashfiyotlarga zid ekanligidan katta to'siqlarga uchradi. Sababi: «Injil»da «xudo Yerni va odamlarni yo'qdan bor qilgan, quyoshni va yo'ldoshlarni esa Yerning atrofida aylanadigan qilib qo'ygan» degan oyatni ruhoniylar boshgacha targ'ib qiladigan ta'limot yo'qqa chiqishi kerak edi. Ushbu asrlarda kishilarning olam haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirgan iste'dodli astronomlardan butun bir guruhi yetishib chiqdi.

Allomalar orasida koinot tuzilishi haqidagi yang'i — geliotsentrik ta'limotni yaratgan ulug' polyak olimi Nikolay Kopernik (1473—1543-yillar) g'oyat faxrli, muhim o'rin tutadi. Kopernik eng oddiy asboblardan yordamida osmon jismlarini 30 yildan ko'proq kuzatdi. Murakkab hisoblar yo'li bilan olim Yerning quyosh atrofida hamda o'z o'qi atrofida aylanib turishini aniqladi. U Yer osmon gumbazidagi yo'ldoshlarning biri bo'lib, hamma yo'ldoshlar kabi quyosh atrofida aylanib turadi, degan xulosaga keldi. Yangi ta'limot tufayli cherkov tomonidan

ta'qib qilinishi va qoralanishini oldindan sezgan Kopernik o'z kashfiyotlarini uzoq vaqt sir tutdi. Shu tufayli olimning «Osmon jismlarining aylanishi haqida» asari uning o'limidan sal avvalroq nashr qilindi, xolos. Kopernikning yangi kashfiyoti fanda katta o'zgarish yasadi. Bu kashfiyot xristian cherkovining obro' va ta'siriga katta putur yetkazdi.

Fanga bag'ishlangan hayot. Nikolay Kopernik (1473-1543) ming yillar davomida qabul qilingan yerni harakatsizligi haqidagi talimotdan voz kechib fanda ulfan to'ntarish yasadi. Nikolay Kopernik har tomonlama ma'lumot oldi, Kirakov va Italiya universitetlarida o'qidi.¹⁵Xristian cherkovi tazyiqining birinchi qurboni Jordano Bruno (1548—1600-yillar) bo'ldi. Ulug' italyan mutafakkiri Jordano Bruno hech mubolag'asiz qahramon, fan uchun kurashuvchi fidoyi olim edi. Jordanoni ota-onasi yoshligidanoq monastirga bergan edi. Lekin u umrini dinga emas, fanga bag'ishladi. Jordano monastirdayoq Kopernik ta'limoti bilan tanishib, uning qizg'in davomchisiga aylandi. Monastirni tashlab ketgan J. Bruno uchun sarson-sargardonlik va tashvishlar bilan to'lib-toshgan, lekin qiziqarli hamda jo'shqin hayot boshlandi. Cherkovning doimiy tazyiqi olimni 16 yil davomida: Fransiya, Germaniya va Chexiyada doimiy safarda yurishga majbur qildi. Bir yillarda olimning ko'pqirrali faoliyati: faqat astronom emas, balki ajoyib notiq, iste'dodli adib va shoirlik xususiyatlari ham yaqqol namoyon bo'ldi.

U Kopernik ta'limotini rivojlantirib: «Koinotning chegarasi yo'q. Olam beqiyos katta va cheksizdir», degan edi. Uning fikricha, Yer ham koinotning markazi emas. «Olam son-sanoqsiz yulduzlardan iborat bo'lib, ularning har biri bizdan uzoqda turgan quyoshdir. Mana shu quyoshning har qaysisi atrofida o'zining aylanib turgan yo'ldoshlari bor». Jordano Brunoning ushbu dadil fikrlari hozirgi kunda fanda to'liq tasdiqlandi.

O'z vatanini sog'inib Italiyaga qaytgan olimni cherkov ushlab, qamoqqa tashladi. Uni dahriylikda ayblab, o'z g'oyalaridan qaytishga undadilar. Sakkiz yillik qamoqdan keyin Jordano Bruno gulxanda yondirildi. Bruno qatl qilingan

¹⁵ SH.Ergashyev. Jahon tarixi. I-qism. T. 2014. B. 76-77.

Rimdagi «Gullar maydoni»da keyinchalik uning haykali oʻrnatildi. Haykal poyiga: «U hamma xalqlar uchun fikr erkinligini talab qildi va shu talabi uchun qatl etildi» deb yozib qoʻyilgan. Bu soʻzlar maydondan unchalik uzoqda joylashmagan Rim papalari oliy idorasi— Vatikanga toʻgʻridan-toʻgʻri tegishlidir¹⁶.

Katolik cherkovi mashhur astronom va fizik Galileyni (1564—1642-yillar) ham butun hayoti davomida taʼqib qildi. Piza shahrida tugʻilgan Galileo 1589-yili universitet professori unvoniga sazovor boʻldi. Samo ilmi bilan faol shugʻullanishi natijasida boshlangan tazyiqlar uni avval Paduya universitetiga, 1610-yili esa Florensiyaga ketishga majbur qildi. Olim oʻzi kashf qilgan oddiy, 30 marta kattalashtirib koʻrsatadigan teleskop yordamida koʻplab yulduzlarni, Oy ustidagi togʻga oʻxshash jismlarni, Yupiterning 4 ta yoʻldoshini, Veneraning fazalarini, quyosh dogʻlarini kashf qildi. Venetsiya ibodatxonalaridan birining ustiga oʻrnatilgan Galiley teleskopidan istagan kishi osmondagi jismlarni tomosha qilishi mumkin edi.

Galiley oʻz asarlarida Kopernik va Jordano Bruno kashfiyotlarini toʻliq tasdiqladi. Rim papasi 70 yoshli olimni inkvizatsiya sudiga berdi. Sud esa Galileyni oʻz maslaklaridan voz kechishga majbur qildi. Olim gunohkorlar kiyimida tiz choʻkib «tavba-tazarru» qildirildi. U umrining oxiriga qadar cherkov nazoratida quvgʻinda yashadi.

Rim papasi Ioann Pavel II tomonidan 1979— 1980-yillari Galileyni sud qilgan inkvizitsiya sudi hujjatlari qayta koʻrib chiqildi va olim gunohsiz deb topildi. Shunday qilib katolik cherkovi oʻzining koʻpsonli «xatolari»dan birini tan olishiga uch asrdan koʻproq vaqt kerak boʻldi.

¹⁶ Semyonov V.F. Oʻrta asrlar tarixi. Darslik. «Oʻqituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1973, 359 bet.

Xulosa

Gʻarbiy Yevropada XII—XIII asrlarda iqtisodiy va madaniy yuksalish boshlandi. Shaharlar taraqqiyoti, hunarmandchilik va savdning rivojlanishi yevropaliklar dunyoqarashining kengayishiga yordam berdi. Salib yurishlari davrida Vizantiya va Arab xalifaligi madaniyatlari bilan tanishuv Oʻrta asr maorifining kamol topishini ragʻbatlantirdi. Oʻrta asr maktablarining soni oʻsib, taʼlim tizimi takomillashib bordi. Maktablar: - monastirlar, shahar soborlari(kafedral) va prihod(mahalla) – maktablariga boʻlingan. Shaharlarning oʻsishi bilan xususiy va shahar kengashlari hamda gildiyalar tomonidan ochilgan maktablar koʻpaydi. Ularda cherkov maktablariga nisbatan kengroq va chuqurroq bilim berila boshlandi. Maktablarda taʼlim lotin tilida olib borilgan, faqat XIV asrda milliy tillarda oʻqitiladigan maktablar paydo boʻldi.

Yevropaning yirik shaharlarida XI asrdan boshlab, kafedral maktablar umumiy maktablarga aylanib, ularning negizida esa oliy maktablar — universitetlar ochila boshladi. Universitet (lotincha soʻz, «majmua» maʼnosini anglatadi) umumiylik maʼnosini berib, unda turli sohalar birlashtirilgani tufayli shunday deb atalgan. XII asr oxirida birinchi universitet Bolonyada ochildi, keyinchalik universitetlar XIII asrda: Monpele, Palermo, Parij, Oksford, Salerno, Salamanka va boshqa shaharlarda tashkil topdi. Umuman, XV asrga qadar Yevropa mamlakatlarida 60 ga yaqin universitet ochilgan.

Universitetlar yuridik, erkin boshqaruv(maʼmuriy) va moliyaviy mustaqillik huquqlariga ega boʻlib, bu haqdagi yorliq qirol yoki Rim papasidan olinardi. Universitetlar mustaqilligi, uning ichki hayotida tartib-qoidalarga, intizomga qattiq rioya qilishi bilan mujassamlashgan. Oʻrta asrlardagi eng yirik universitet Parijda boʻlgan. Unga 1257-yili fransuz qiroli xonadoni ruhoniysi Rober de Sorbon asos solgan. Demak, hozirgi kunga qadar mashhur Sorbonna universiteti shu tariqa tashkil topgan. Gʻarbiy va Markaziy Yevropalik talabalar shuningdek Ispaniya va Italiyada taʼlim olishgan. Kordova, Sevilya, Salamanka, Malaga va Valensiyadagi

maktablar va universitetlarda falsafa, matematika, medicina, astronomiya, Bolonya va Paduyada esa huquq bo'yicha keng va chuqur bilimlar berilgan.

Universitetda alohida fan o'qituvchilari yig'ilib o'z birlashmalarini, fakultetlarni tuzib, unga dekan saylaganlar. o'qituvchi va studentlarning umumiy yig'ilishida universitet rahbari — rektor saylangan.

Oliy maktab dastlabki vaqtda (Studia generalia) "umumiy fanlar" deb atalgan, keyin, bu nomni boshqacha – universitetlar (Lotincha Universitas – "jamo", "korporasiya", "yig'indi" professor-o'qituvchilar va studentlar so'zidan kelib chiqqan) degan nom surib chiqqan.

Birinchi universitetlar XII asrda bir qismi teologiya va falsafa sohasida eng yirik professorlari bo'lgan yepiskop maktablaridan, bir qismi xususiy muallimlarning – falsafa, huquq (Rim huquqi) va tibbiyot mutaxassislarining birlashmalaridankelib chiqqan. Yevropada eng dastlabki universitet Parij universiteti bo'lib, u XII asrning birinchi yarmidayoq "erkin maktab" sifatida mashg'ulot olib borgan. Parij universiteti XII asrning ikkinchi yarmida va XIII asrning boshlarida uzil-kesil rasmiylashgan (Filipp II Avgust 1200 yilda Sorbonna huquqlari to'g'risidagi yorlig'i bilan ta'sis etgan). Ammo Italiyaning oliy maktablari – Rim huquqiga ixtisoslashgan Bolonya yuridik maktabi va Salerno tibbiyot maktabi ancha ilgari, XI asrdayoq universitetlarning markazlari rolini o'ynay boshlaganlar. Yevropadagi boshqa universitetlar asos qilib olgan Parij universiteti ustavi to'rtta fakultetdan: artistik, tibbiyot, yuridik va teologiya (diniy ruhda falsafa o'qitish ham bunga kiradi) fakultetlaridan iborat bo'lgan. XII asr oxirida Parij universiteti rasman shakllandi, 1200 yilda qirol va papa tomonidan rasman tasdiqlandi: uning ortidan boshqa universitetlar ham vujudga keldi. Universitetlar Fransiyada falsafa va fanning rivojlanishida ulkan rol uynadi¹⁷.

Angliyadagi XIII asrda ta'sis etilgan Oksford va Kembridj universitetlari, Ispaniyadagi Salamanka va Italiyadagi Neapol universitetlari Yevropadagi eng dastlabki universitetlar edi. XIV asrda Markaziy Yevropada – Praga, Krakov,

¹⁷История Франции. В трех томах. Том 1. Издательство "Наука", Москва, 1972, стр. 114.

Geydelberg, Erfurt va Kyoln shaharlaridagi universitetlar barpo etildi. XV asrda universitetlar soni tez ko'paydi. 1500 yilda butun Yevropada 65 ta universitet bor edi¹⁸.

O'rta asr oliy o'quv yurtlari – universitetlarning paydo bo'lishi ingliz xalqi savodxonligi va madaniyati tarixida yirik voqelik bo'ldi. Angliyada dastlab Oksford va Kembridj universitetlari tashkil topgan. Ularning tashkil topgan vaqti XII asr ikkinchi yarmi va XIII asr boshiga to'g'ri keladi.

Mavzuga doir yangi manba va adabiyotlardan foydalanib malakaviy ish hajmidagi ma'lumotlar yoritildi va quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan. G'arbiy Yevropada dastlabki universitetlarning vujudga kelish tarixi tahlil qilindi.

Ikkinchidan. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa Universitetlarning tashkiliy tuzilishi yoritib berildi.

Uchinchidan. Universitetlarda ta'lim va o'quv jarayonining tashkil etilishi tahlil qilindi.

To'rtinchidan. Rivojlangan o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada fanning rivojlanishi xolisona yoritildi.

¹⁸Semyonov V.F. O'rta asrlar tarixi. Darslik. «O'qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1973, 363 bet.

TAVSIYALAR.

Birinchi. Yevropani jahondagi eng nufuzli universitetlari tarixini yoritish orqali yohslarni chet tilini o'rganishga va ushbu oliy o'quv yurtlarda tahsil olishga qiziqish uyg'otish .

Ikkinchi. Yevropani ilm-fan sohasi rivojlangan universitetlari bilan mamlakatimizdagi oliy oquv yurtlari o'rtasida samarali aloqalarni yo'lga qo'yilayotganini o'quvchi yoshlarga yetkazish.

Uchinchi. Har qanday sivilizasiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va o'zaro samarali ta'sirining mahsuli ekanligini o'quvchilarga yetkazish lozim.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.- Toshkent, ”Sharq” NMK, 1998, 28-bet
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, ”Ma’naviyat”, 2008, 105, 119-betlar.
3. Karimov I.A. Hayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli har qanday yuksak marrani egallashga qodir. Toshkent-”O‘zbekiston”-2016. B.9.
4. Петр Абельяр. История моих бедствий. М., изд-во «Наука», 1959, с. 44-45
5. История Франции. В трех томах. Том 1. Издательство “Наука”, Москва, 1972, стр. 114.
6. Jalilov S. Vatanimiz tarixini varaqlab (Tarixchining o‘ylari). – Andijon, ”Andijon nashriyot-matbaa” OAJ, 2004, 8-bet.
7. Арнолд из Вилланови. Салернский кодекс здоровой. Приложение. М., изд-во «Наука», 1970, с.77
8. Советская историческая энциклопедий. В 16-ти томах. Т.14, Москва, 1973, стр. 808
9. Semenov V.F. O‘rta asrlar tarixi. Darslik. «O‘qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1973, 363 bet.
10. Степанова В.Е. и Шевеленко А.Й. История средних веков (XV – XVII вв.). Хрестоматий. Ч.ИИ.М., “Просвещение”, 1974, стр. 60.
11. Qurbangaliyeva R. O‘rta asrlar tarixidan o‘quv-metodik qo‘llanma. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1980, 142-bet.
12. Yuridik ensiklopediya. – T.: “SHarq”, 2001, 272-bet.
13. Суворов Н.С. Средневековые университеты. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012, с.109
14. Ergashyev. SH. Jahon tarixi. I-qism. T.2014. B.76-82.
15. Fomchenko A.P. “O‘rta asrlar tarixi” kursiga doir metodik ko‘rsatmalar. “O‘qituvchi”, Toshkent, 1973, 100-101 betlar.
16. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9–jild, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2005 yil, 105-bet
17. История средних веков: В 2 т. Т.1: Учебник. – М.: Изд-во Моск. Ун-та: Наука, 2005, с. 595

Internet – saytlar:

1. [www. Google. co. uz](http://www.Google.co.uz)
2. [www. Ziyo. uz.](http://www.Ziyo.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)

Ilovalar



Sarbonna Universiteti.



Kembridj Universiteti.



Oksford Universiteti.



Parij Universiteti.

Boloniya Universiteti Tamg'si.

